

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILI KAFEDRASI

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi

4- „V“ kurs talabasi

SOBIROVA OZODA OLLABERGANOVNA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: « G‘afur G‘ulom nasrining leksik-frazeologik
xususiyatlari va ularni o‘rta maktablarda o‘rgatish »**

Talaba:

O.Sobirova

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. E.Xo‘janiyozov

Kafedra mudiri:

f.f.n., dots.Sh.Yuldoshova Sh

*O‘zbek tili va O‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2019- yil
__- _____dagi __- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS – 2019

Davlat attestatsiyasi

QARORI

5111200 – o‘zbek tili va adaboyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi
4-«V» kurs talabasi Sobirova Ozoda Ollaberganovanning «G‘afur G‘ulom
nasrining leksik-frazeologik xususiyatlari va ularni o‘rta maktablarda o‘rgatish»
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga bilan «____» ball («____%») qo‘yilsin.

«____» _____ 2019- yil

DAK kotibi:

O. Xaytboyev

MUNDARIJA

	KIRISH	4
I BOB.	G‘.G‘ULOM NASRIY ASARLARINING LUG‘AVIY TARKIBI VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	13
1.1.	G‘afur G‘ulomning «Shum bola» va «Yodgor» qissalarining leksik tarkibi va unda umumiste’moldagi leksik birliklarning qo‘llanilishi	13
1.2.	G‘afur G‘ulom nasrida istemol doirasi cheklangan birliklarning qo‘llanilishi va ularning mazkur qissalar matnida tutgan o‘rni	15
1.3.	G‘afur G‘ulom qissalarida bo‘yoqdor so‘zlar va poetik so‘zlarning uslubiy qo‘llanilishi guruhlari	19
II BOB.	G‘AFUR G‘ULOM NASRIDA FRAZELOGIZMLAR QO‘LLANILISHI MIQYOSI VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI	28
2.1.	G‘afur G‘ulom nasrida umumxalq frazeologizimlarning ishlatilishi va ularning asar badiiyligini ta’minlashdagi roli	28
2.2.	G‘afur G‘ulom nasrida muallif frazeologizimlarni qo‘llanilishi va ularning asar badiiyligini ta’minlashdagi roli	34
III BOB.	G‘AFUR G‘ULOM IJODINI O‘RTA MAKTABLARDA O‘RGANILISHI XUSUSIYATLARI	46
3.1.	G‘afur G‘ulomning nasriy asarlarini umumta’lim maktablarida o‘rganilishi	46
3.2.	G‘afur G‘ulom ijodini o‘rta maktablarda o‘rganishga bag‘ishlangan dars ishlanmalari	47
	XULOSA	58
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili yozuvchi tilini o'rganish muallif uslubi kabi masalalar bo'yicha har hil mualliflar turli – tuman fikrlar o'rta tashlangan.

Chunochi, bu yo'nalishda A.Shomahsudov, I.Qochqortoyev G'.Abdurahmonov, B.Yo'ldoshev kabi olimlarning ishi mavjud bo'lib ularda badiiy asrning tili har hil vositalari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Shuningdek, ko'pgina olimlar ishlarida ba'zi yozuvchilarning konkret asarlari tadqiqot obyekti bo'lgan. Jumladan, akademik Sh.Shomahsudov Muqumiy, F.Isoqov Gulxaniy, A.Ahmedov Furqat, F.Abdullayev, B. Turdiyev Hamza, Q.Samandarov Oybek, I.Qo'chqortoyev, Abdulla Qahhor asarlari tili xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanagan. Tadqiqotchilar mavjud bu ishlarda o'sha yozuvchilarning konkret bir asarlarini o'rganib ular to'g'risida fikrlar bildirgan. Ammo, G'afur G'ulom nasriy asarlarning tili xususiyatlari ularning leksik -frezeologik tomonlari alohida tadqiqot obyekti bo'lgan emas, vaholanki , G'afur G'ulom asarlarida o'zbek xalqi og'zaki so'zlashuv tili elementlari adabiy til vositalari keng qo'llanilgan.

Muammoning o'rganilish darajasi. O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili haqida ko'pgina tadqiqotlar olib borilagn, xususan, A. Sh .Shoabdurahmonovning, M.Hakimovning, L Abdullayevaning, E. Qilichevning asarlarida ko'zga tashlanadi.Bu masalalar hozirgi davr badiiy adabiyotning til xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy qarashlar badiiy asar tiliga qanday munosabatda bo'lish haqidagi xulosalar, adabiy til va yozuvchi tilidagi mushtarak va farqli bo'lgan jihatlar badiiy asar tili va umumxalq tili haqidagi aytilgan fikrlar bizning malakaviy ishimizning yozishimizda o'ziga xos tayanch bo'ldi va ilmiy nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning maqsadi. Quyidagilardan iborat:

- adabiy til va yozuvchi tili o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish va muallif tilining materiali xususiyatlari haqida fikrlar yuritishdandir;

- Gʻafur Gʻulom nasrining til xususiyatlari umumxalq oʻzbek tiliga va adabiy tilga munosabatni koʻrsatishdan;
- Gʻafur Gʻulom nasrida ishlatilgan leksik qatlamning ildizlarni aniqlash va uni mavzuiy guruhlariga boʻlish;
- Gʻafur Gʻulom nasrida poetik soʻzlardan boʻlgan umumisteʼmoldagi soʻzlarni nisbatini aniqlash;
- Gʻafur Gʻulom nasrida isteʼmol doirasi cheklangan leksik qatorlar soʻzlarni belgilash;
- Gʻafur Gʻulom nasrida qoʻllanilgan frazeologik birlikni tartibi va salmoqini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilangan:

- Gʻafur Gʻulom nasri leklik tarkibini koʻlamini aniqlash va uning oʻzbek adabiy tilidagi leksik doiralarni qamrab olish darajasini belgilash;
- Gʻafur Gʻulom nasrida obraz yartish peyzaj tasviri kishilar harakteriga xos chizgilar tashqi koʻrinishi kabilarning vazifasida ifodalanish xusuiyatlarini belgilash;
- Gʻafur Gʻulom nasrida ogʻzaki soʻzlashuv stiliga xos boʻlgan soʻzlarni ajratib koʻrsatish;
- Gʻafur Gʻulom nasrida dialektizmlarni va baʼzi ijtimoiy guruhlarini soʻzlar berilishi va uning badiiy tasvirdagi oʻrnini belgilashdandir;
- Gʻafur Gʻulom nasrida frezeologizmlarni qoʻllanish darajasini belgilash va uning asar badiiyligini taʼminlashdagi ahamiyatini belgilashdan va hakoza dan iborat

Tadqiqot obyekti. Gʻafur Gʻulom nasriy asarlari hisoblanadi. Asosan, biz unda “Shum bola”, “Yodgor” qissalarini leksik-frazeologik xususiyatlarini oʻrganishni maqsad qilib oldik va shu asarlarni asosiy obyekt qilib belgiladik.

Tadqiqot maqsadi. Gʻafur Gʻulomning yuqoridagi koʻrsatilgan asarlaridan lisoniy materiallar tashkil etadi, unda Gʻafur Gʻulom nasrini leksik qatlamlari va mundarijasi shu asarlarda qoʻllangan frazeologizmlar boʻyicha toʻplangan materiallar lisoniy tahlil qilishimizning asosiy predmeti boʻldi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. O‘zbekiston Respublikasi milliy mustaqilligini bosh g‘oyasi va mafkurasi talablari darajasida yondashish yo‘llari bosh metodologik asos sifatida olindi. Xalq tilining tuganmas sarchashma ekanligidan kelib chiqib umumxalq tilda mavjud bo‘lgan leksik birliklarni tanlashi va saralanishi masalalar bosh yo‘nalish qilib belgilanadi.

Bundan tashqari ishda materiallarni to‘plash to‘plangan materiallarni lisoniy tahlil etish, qiyoslash, ilmiy tahlil va qilish baholish kabi usullar ham qo‘llaniladi.

Ishning ilmiy yangiligi. Quyidagilardan iborat:

- G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, “Yodgor” qissalaridagi leksik qatlamlarni yoppasiga o‘rganish masalalari birinchi rejaga qo‘yiladi;
- G‘afur G‘ulom nasrida qo‘llanilgan leksik birliklar ilk bor o‘rganilib, ularning tartibi aniqlanadi;
- G‘afur G‘ulom nasridagi umumiste’moldagi leksik birliklarni salmog‘i aniqlandi va uning matn tarkibidagi o‘rni belgilandi;
- G‘afur G‘ulom nasrida qo‘llanilgan iste’mol darajasi cheklangan leksik birliklarning qo‘llanilishi darajasi belgilandi;
- Mazkur asarda qo‘llanilgan dialektizmlar, kasb hunar so‘zlari, jargonlarning qo‘llanilish maqsadi aniqlanib ularning badiiy asar tartibidagi o‘rni belgilandi;
- G‘afur G‘ulom nasrida qo‘llangan frezoelogizmlar aniqlandi, va uning manbalari belgilandi;
- Yozuvchi frezoelogizmlari ikkiga bo‘lib o‘rganildi, ya’ni ular umumxalq frezoelogizmlari va muallif frezoelogizmlari deb taqsimlanib ular yozuvchi mahoratini qirralarini yoritishga yordam berishi belgilab berildi;
- G‘afur G‘ulom asarlarining leksik frezoelogik xususiyatlari aniqlanish orqali G‘afur G‘ulom so‘z san’atkori sifatidagi mahorati ochib ko‘rsatildi.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyatlari. Ilmiy ahamiyati shundaki, unda yondashilgan qarashlar badiiy matndan tanlangan misollarning tasnifi badiiy asar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarida yo‘nalish beruvchi tadqiqot sifatida ish berishi mumkin uning amaliy ahamiyati shundaki o‘rta

maktablarda, kasb hunar kollejlarda Gʻafur Gʻulom ijodini oʻrganishda unga chuqurroq munosabatda boʻlish yoʻllarini koʻrsatishga yordam beradi. Shuningdek, unda toʻplangan lekisk birliklar va frazeologik elementlar oʻquvchilarni soʻz boyligini oshirishda ularning nuqtiga meyorlashishda soʻz qoʻllash malaka va koʻnikmalarni yuksaltirishda katta berishi mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat uning umuiy hajmi 61 betdan iborat.

I BOB. G‘OFUR G‘ULOM NASRIY ASARLARINING LUG‘AVIY TARKIBI VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Yetakchi yozuvchilar asarlari tilini o‘rganmay turib, shu yozuvchilar mansub bo‘lgan xalqning tarixini mukammal bilib bo‘lmaydi. Masalan, Rossiya tarixini Pushkin asarlari tilisiz, Angliya tarixini Shekspir, Bayron asarlari tili tahlilisiz tushunarli bo‘lmaydi.² O‘zbek xalqining tarixini chuqur bilish esa Navoiy, Bobur va boshqa yetuk ijodkorlar tilini o‘rganish bilan bog‘liqdir. O‘zbek adabiy tili o‘tmishi, hozirgi holati, ijodkor yashagan davr tilining umumiy yo‘nalishi va rivojlanish qonuniyatlarini belgilashda, tilda ro‘y berayotgan jarayonlarni o‘zida aks ettirgan mohir so‘z san‘atkori G‘afur G‘ulom asarlaridagi o‘ziga xoslik, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor asarlari tili kabi milliy adabiyotimiz uchun kerakli so‘zlarni tanlay bilishda konkret tasvirdan keng umumiy planda foydalanishda namoyon bo‘lgan. «G‘afur G‘ulom so‘z san‘ati ustida qunt bilan ishlaganlardan biri».³ U o‘z asarlarida jozibador manzara yaratish maqsadida so‘zning hissiy kuchini oshirib, kishida his-hayajon uyg‘otib hayratda qoldiradigan real hayotiy va jonli lavhalar tasvirida namoyon etadi.

Yozuvchi asarlarida o‘zbek adabiy tilining to‘liq shakllanish jarayonlarini aks ettiruvchi leksik birliklar shevaga oid nutqiy o‘zgachaliklar, yozuvchi tomonidan hosil qilingan o‘ziga xos emotsional-bo‘yoqdorliklar, ayniqsa qadimgi turkiy eski o‘zbek tiliga xos til birliklarining faol ishlatilgani ko‘rinadi.

G‘afur G‘ulom nasriy asarlari tili leksikasini maxsus o‘rganishda quyidagi masalalarni yoritish ko‘zda tutiladi:

- 1) nasriy asar tili haqida umumiy ma‘lumot berish;
- 2) badiiy asar tili leksikasini o‘rganishning o‘ziga xos tamoyillarini belgilash;
- 3) so‘z san‘atkorining o‘ziga xos so‘z qo‘llash uslubini aniqlash, undagi jonli xalq tiliga xos xususiyatlarni topish;
- 4) nasriy asarlardagi ekspressiv-bo‘yoqdorlik til birliklarini tahlil etish;

² Фозилов Э. Ҳаёт ҳақиқати ва сўз қудрати. Ўзбек тили ва адабиёти. –1979. 1-сон, 14-бет.

³ Шоабдурахмонов Ш.Мохир сўз санъаткори. Ўзбек тили ва адабиёти. –1973. 4-сон, 15-бет.

- 5) asar tilida eskirgan, arxaiklashgan soʻzlar semantik taraqqiyotini aniqlash;
- 6) asar leksikasini tematik guruhlariga ajratishdan iborat.

Gʻafur Gʻulom nasriy asarlari til leksikasi hanuzgacha maxsus oʻrganilmagan.

Gʻafur Gʻulom mumtoz adabiy manbalarni chuqur oʻzlashtirgan ijodkor allomadir. U eski oʻzbek yozuvida bitilgan mumtoz adabiy asarlarni, ilmiy, tarixiy kitoblarni erkin mutolaa qilar edi. Ular haqida chuqur ilmiy mulohazalar yuritgan tadqiqotchi hamdir. Akademik Gʻafur Gʻulomning Al-Xorazmiy, Al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Durbek, Alisher Navoiy, Mirxond, Xondamir va boshqa allomalar haqida yozgan ilmiy maqolalari fikrimizning dalilidir.

Xususan, eski oʻzbek tili qonuniyatlariga rioya qilish, eski oʻzbek yozuvini toʻgʻri oʻqishga undash maqsadida «Atoiy emas, Otoy maqolasi», badiiyatni his etish, uni teran tushunish, mumtoz badiiy vositalardan yaqindan xabardor boʻlish maqsadida «Navoiy va zamonamiz», «Buyuk ustoz», «Ikki Mashrab», «Shoir ayblandi» (Furqatning Hindistondan yozgan xatlari xususida), «Muqimiy maktublari», «Poetikamizni tobora takomillashtiraylik» nomli yirik monografik tadqiqotlar darajasidagi ilmiy maqola va maʼruzalar bilan chiqishlari shular jumlasidandir. U Sharq tillaridan arab tilini yaxshi bilgan ayniqsa, fors-tojik tilida ijod qilgan Rudakiy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Saʼdiy Sheroziy, Hofiz, Mirzo Bedil kabi mashhur soʻz sanʼatkorlari asarlarini mutolaa qilib, baʼzilarini tarjima etib, maʼnaviy oziqlandi. Bular haqida ham original ilmiy salohiyatga ega boʻlgan tadqiqotlar yaratdi. Uning «Tarixiy munosabatlar» (Jomiy, Nizomiy, Xisrav Dehlaviy va Navoiy kabilar haqida), «Shayx Muslihiddin Saʼdiy Sheroziy» va boshqa bir qator mutafakkirlar haqida ilmiy mulohazalari fikrimizning dalilidir. Gʻafur Gʻulomning badiiy asarlari tilining orginalligi shundaki, har bir soʻzni xoh u sof turkiy, xoh arabiy, xoh forsiy soʻz boʻlsin, ular ijodkor tomonidan mazmunan chuqur oʻzlashtirilib, oʻz matniy mazmundorligini egallagan, har bir asar ruhidan kelib chiqib oʻrinli ishlatilgan. Shoirning nazmiy va nasriy asarlarining har biri oʻziga xos orginal usulda yaratilganligi ham ana shundadir. Yozuvchi badiiy

asarlari qo'llanilishi chegaralangan leksikaga oid maxsus professional, kasb-hunarga oid so'zlar, dialektizmlar, jargonlar, tarixiy va arxai kabi eskirgan so'zlar nihoyatda o'rinli ishlatilganligi bilan ham xarakterlidir. Bu esa ona tilimiz leksikasi boyligini ko'rsatishi bilan unutila borayotgan so'zlarni qayta tiklanishiga ham imkoniyat tug'diradi.

Biz mazkur malakaviy ishimizda G'afur G'ulom prozasining lug'aviy tarkibini o'rganishga harakat qildik.

G'afur G'ulom prozasi o'tgan asrning 30-yillaridan e'tiboran milliy til elementlaridan mahorat bilan foydalanishga badiiy tasvirni individual bo'yoqlar asosida hissiyotni konkret detallar bilan berishga erisha olgan edi. Uning bu davrlarda yaratilgan «Netay», «Tirilgan murda», «Yodgor», «Shum bola» hamda pyesa, hikoya va feletonlari kabi qator nasriy asarlaridagi obrazlilik, real tasviriylilik o'quvchini o'ziga sirli tortadi, sehlraydi. Ulkan yozuvchi o'z asarlarida har bir so'zni, iborani o'rinli qo'llab voqea tafsiloti, qahramon xatti-harakati, uning ismi-sharifi, joy nomi, manzara tasvirlarida aniqlik bo'lishi bilan birga chuqur badiiylilik ustunlik qilgan. Bunda barcha uchun umumiy, kundalik hayotda zarur narsa va hodisa tafsilotlarini anglatuvchi so'zlar xalq jonli tili asosida badiiy ifodalangan.

O'zbek tilining lug'at tarkibi nihoyatda boydir.⁴ Shuning uchun ijodkorlar o'zbek tili leksik boyligidan kerakli so'zlarni erkin, tanlab olish imkoniyatiga egadirlar.

G'afur G'ulom asarlari tilidagi ba'zi so'zlarning matniy ma'nolari o'quvchini bir muncha fikrlashga undaydi.

Masalan:

Yana o'sha **taloq stoliga** yaqinlashdik («Yodgor», 7), «Omon bo'lsang pisharsan, bu taftingdan tusharsan», ular ham yoshlikning **taxu taqosini** yig'ishtirgandan keyin, zora bolaning qadriga yetsa («Yodgor». 11).

G'afur G'ulom asarlari tilida voqea-hodisalarni real tasvirlash maqsadida arabiy, forsiy, qadimgi, eski turkiy tillardagi lug'aviy birliklar aslidagidek aynan qo'llangan. Jumladan, hozirgi o'zbek tilida kam uchraydigan ko'tarmachi (optom),

⁴ Бу ҳақда қаранг: Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент: Фан, 1981, 42-бет.

paxtafurush (paxta sotuvchi), gaz (uzunlik o'lchovi metr), ho'qa (yog' idish), bo'yincha (tengdosh), qo'ndoq, yaktak, lipa, guppi, mursak, savag'ich, chirmandachi, kuchala, irvit kabi leksemalarning ba'zilar qadimgi, eski turkiy tillari davrida bosh ma'noda qo'llangan bo'lsa, ba'zilar eski o'zbek tilida ko'chma ma'noda ishlatilgan. Aslida ham badiiy asar tili mohiyatan ta'sirchan emotsional-ekspressiv tildir. G'afur G'ulom asarlari tilining muhim xususiyatlari to'g'risida akademik Sh.Shoabdurahmanov shunday deydi: «Badiiy asarga xos bo'lgan bu tasviriylik, obrazlilik va boshqa xususiyatlar umumiy til materiali yordami bilangina emas, balki G'afur G'ulom sayqal bergan til va so'zning kuchi, qudrati bilan yaratilgan. U ishlatgan so'zlar, iboralar, alohida olganda oddiygina so'z, ammo asar to'qimasida pur ma'no so'z va iboralar, ularning turli jilolanishidan yaratilgan».⁵

G'afur G'ulom asarlari tilining obrazli ifoda vositalari tizimida sifatlash alohida e'tiborni tortadi. «Yozuvchi individual nutq sifatlashlarini biror narsa va hodisani obrazli gavdalandirish, bir turdagi predmetlarning o'ziga xos ayrim belgi, xususiyatlarini yorqinlashtirish maqsadida qo'llaydi».⁶ «Yodgor» asarida to'g'ri ma'noli sifatlash hamda ko'chma ma'noli sifatlashlardan bir tushunchaning nomini ifodalashda foydalanilgan:

Men ham **jimjit** ko'chada yolg'iz bormoqdaman (3). **Pashsha uchmagan tilsiz** ko'chada ketib bormoqdaman (3).

«Yodgor» asarining qahramoni Jo'raning xarakter, xususiyatlarini ko'rsatish maqsadida quyidagi sifatlashlarni qo'llaydi.

1. Boshqa xil tarbiya berishga men singari **dunyo ko'rmagan bo'ydoq** yigitning chorasi yo'q (13).
2. Harbiy xizmatga chaqirilganimda **savodli**, hisobdan **to'rt amalnigina biladigan oddiy bir** yigitcha, yana to'g'risi, **oldi ochiq yaktak kiygan yalla bedard** o'spirin edim (15).

⁵ Шоабдурахмонов Ш.Мохир сўз санъаткори. Ўзбек тили ва адабиёти. 1973. 4-сон, 15-бет.

⁶ Мукаррамов М. Ўзбек тилида сифатлаш. Ўзбек тили ва адабиёти. 1973. 6-сон. 38-бет.

3. Axir, o'rtoqlar, o'zingiz o'ylangiz, bundan ikki yarim yilgina ilgari hamma narsadan bexabar, bog' ko'chalarida **yallasini tortib yurgan chapani** yigit, bugun harbiy akademiyaning meditsina fakultetida professorlardan leksiya tinglab o'tiradi! (22).
4. Go'yo so'qir paxsa devorlardan shaftolilar mo'ralagan uzun va jimjit bog' ko'chaning **yalla bedard chapanisi** edim (48).

«O'ta obrazli metaforik sifatlashlar predmetlarning haqiqatda bo'lmagan va bo'lmaydigan belgi-xususiyatlarini aniqlaydi».⁷ G'afur G'ulom ham o'z ijodida individual nutq sifatlashlarini yaratgan: Baland-baland **so'qir** paxsa devorlar osha ko'cha tomonga shaftoli, olxo'ri, ba'zan aymoqi tokuzumlar osilib tushgan (3). Ana uning qip-qizil va kichik lablarida meni xaligacha maftun qilgan birinchi yarim tabassumning **yovvoyi** izlari (3).

G'afur G'ulom leksikasida turli kasb-hunarga oid so'zlar, etnonimlar, dialektal so'zlar, jargonlar, iste'moldan chiqqan, ammo o'rni bilan uslubiy talablarga ko'ra qo'llanuvchi so'zlar (olovni jo'nashtirib ketmoq, shilingpocha, shirava), yangi kashf etilgan narsalar atamasi, arxaik (yonchiq) va tarixiy so'zlar (g'ulom), boshqa tildan o'zlashgan so'zlar faol qo'llangan.

1.1. G'afur G'ulomning «Shum bola» va «Yodgor» qissalarining leksik tarkibi va unda umumiste'moldagi leksik birliklarning qo'llanilishi

Shoir asarlarida qo'llangan turli sohalarga oid so'zlarni leksik-semantik jihatdan bir necha o'nlab guruhga ajratish mumkin. Bular: kishi ismlari, laqablar, etnonimlar, kosiblikka oid atamalar, qush nomlari, inson a'zolari nomlari, xo'jalikka oid atamalar, hayvonot dunyosi va o'simliklar dunyosiga oid atamalar, ijtimoiy-siyosiy, harbiy atamalar, marosim nomlari, o'lchov, og'irlik, masofa, savdo-sotiqqa oid atamalar, kiyim-bosh atamaları, qavm-qarindoshlik atamaları, taom nomlari, meva nomlari, dori-darmon, mato nomlari, fasllarga oid so'zlar⁸ va boshqalar.

⁷ Мукаррамов М. Кўрсатилган манба. 39-бет.

⁸ Бу ҳақда «Ғафур Ғулом насрий асарлари лексикасининг мавзуй гуруҳлари» қисмида тўлиқ тўхталдик.

Gʻafur Gʻulom asarlarida atoqli otlarning deyarli barcha tiplari mavjud: antroponimlar (ism, laqab, familiya): Yodgor, Saodat, Joʻra, Abdugʻani, Obid, Yoʻldosh, Mehri, Omon, Karim qori, Abdullaxoʻja, Turobboy, Salimboy, Miraziz, Yoqubbek, Batibuvi, Oysha chevar,...

Toponimlar (kishilar tomonidan atalgan tabiiy geografik nomlar): Toshkent, Tikonlimozor, Qoʻrgʻontegi, Qoratosh, Yalanqari, Olmazor, Devonbegi, Qashqar, Irbit, Saʻbon, Achaobod,...

Zoonimlar (hayvon va boshqa xil mavjudotlarga berilgan nomlar): qumri, saʻva, bulbul, mayna, miqqiy, qirgʻiy, qarchigʻay, toʻti, chumchuq.

Astroponimlar (osmon jismlaridan yulduz kabilarga berilgan nomlar): Mezon, yetti qaroqchi, Xulkar, Somonchining yoʻli

Teonemiya (diniy, afsonaviy tushunchalar atamasi):

Fitonomiya (oʻsimliklarga berilgan nomlar): gulbeor, gulraʻno, gulsafsar, gulhamishabahor, qoʻqongul, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul va boshqalar.

Oʻzbek tilshunosligida atoqli otlarning antroponimika sohasida E.Begmatov, X.Azamatov, A.Muxtorov, G.Sattorov, E.Qilichev, N.Xusanov va boshqa olimlar tomonidan anchagina ishlar qilingan.⁹ Shu bilan bir qatorda, oʻzbek nomshunosligi boʻyicha olib borilayotgan ishlarning hali yetarli darajada emasligi va bu sohada hal qilinishi lozim boʻlgan masalalarning dolzarbligi bir guruh olimlarimiz tomonidan bildirilganligini eʼtiborga olib,¹⁰ Gʻafur Gʻulomning antroponimlardan badiiy va uslubiy maqsadlarda foydalanish mahoratni ochish, uning asarlarida qoʻllangan kishi nomlari, laqablarining etimologik va maʼnaviy xususiyatlarini

⁹ Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. Автореф. дис. канд. филол. наук. - Тошкент, 1965; Шу муаллиф. Ўзбек номларининг имлоси. Тошкент, 1970; Мухторов А. Атоқли отларнинг турдош от асосида ҳосил бўлиши. «Ўзбек тили грамматик қурилиши ва стилистикаси масалалари». Илмий мақолалар тўплами. Самарқанд, 1966; Қиличев Э. Айний асарларидаги антропонимларнинг стилистик хусусиятлари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1978; Сатторов Г. Тюркский пласт узбекской антропонимии. Автореф. Дис. Канд. Филол. наук. - Тошкент, 1990; Хусанов Н. XV аср ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари. 1 китоб, Тошкент, 1996; Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимияси. Филол. фан. номз. дисс.... автореф. Тошкент, 1998; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. Фан. Номз. Дисс.... автореф. Тошкент, 1998.

¹⁰ Бегматов Э, Хусанов Н. Ёқубов Ш, Боқиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1992, 5-6-сон, 21-27 – бетлар.

tavsiflash, laqablarning nominativlik va ekspressivlik xususiyati hamda vazifalari, shuningdek nomshunoslikning yuqorida sanab o'tilgan bir qator qismlari kabi masalalar ham yetarlicha tadqiq etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur matnda shoir Yodgor ismining qo'yilishini quyidagicha ifodalaydi:

-Oh, onaginang o'rgilsin, bolam, sen endi sallotga ketayotibsan, xudoyo-xudovando, yomon ko'zdan saqlasin... Xudo dushmaningni **xoru zor** qilsin. Ishqilib, o'qqa uchib ketmagin. O'rtoqlaring bilan yenginglar-u yengilmanglar. Men o'g'limning otini ehtiyot shartdan **Yodgor** qo'ydim. Sendan qoladigan tuyoqqina. Yaxshi ham shu bola dunyoga kelgan ekan, seni ko'rgandek bo'lib yuraman, hiding dimog'imdan ketmaydi, -deb yig'lar edi («Yodgor». 15).

Yoki: G'afur G'ulom Obid ismiga mulla so'zining qo'shib aytilishini quyidagi matnda oydinlashtirgan:

Bu yoqqa qara, **mulla Obiddan** qochmay qo'ya qol. Qizimning domlasidan ham qochasanmi? Saodatingni ham chaqir, o'zining kunda ko'rib yurgan domlasida! («Yodgor». 27).

Shuningdek, shoir asarlari tilida bir qator laqablar ham qo'llanganki, ular asosan kishining tashqi qiyofasi (Ibrohim polvon, Ahmadali kal, Azim puchuq, Ilyos bo'rdoqi)ga, xarakteri (Karim jinni, Yo'ldosh shilqim, Po'latxo'ja mug'ombir, Abdulla dulvor)ga, kasb – kori (Ilhom samovarchi, Oysha yallachi, Tursun pichoqchi, Ziyomat guzafurush, mulla Obid)ga, diniy unvon bilan bog'liq laqablardan (Shamsi domla, Rahmat xoji, Solihboy so'fi) hamda ijobiy yoki salbiy xislatlariga qarab ishlatilgan. Shuningdek, ba'zi laqablarning nomlanishiga aniqlik ham kiritgan: Jinnilarning ichida o'ziga xos tantiqlaridan biri **Mayramxon** edi. Asli ismi **Mamatrayim** bo'lib, **xalqqa «erka» bo'lganidan «Mayramxon» deb atar edilar**. («Shum bola». 131).

Tepamizda saman otga mingan, moshkichiri soqolli, **burni xuddi paxtalik tunga qadalgan tugmaday ichiga botib ketgan puchuq** bir kishi qamchi o'ynatib, siyosat qilar edi...

Azim puchuq degan boy ekan. U ot bilan paxtalarini ko‘rib yurib, shu falokatning ustidan chiqib qolibdi («Shum bola». 209).

1.2. G‘afur G‘ulom nasrida iste‘mol doirasi cheklangan birliklarning qo‘llanilishi va ularning mazkur qissalar matnida tutgan o‘rni

G‘afur G‘ulom o‘z asarlarida qaysi so‘zni qo‘llamasin, qanday iboradan foydalanmasin, ularning hammasini aniqlik va konkretlik hosil qilishga bo‘ysundiradi. Masalan: Shoir «Yodgor» asarida keng iste‘moldagi **yovvoyi** so‘zini obraz va manzara yaratish maqsadida mahorat bilan ishlatganki, natijada u so‘z matn talabiga asosan o‘z ma‘nosidan chiqib, **soxta** ma‘nosini anglatib, badiiylik yaratishga xizmat qilgan. Masalan, Ana-uning qip-qizil va kichik patlarida meni haligacha maftun qilgan birinchi yarim tabassumning yovvoyi izlari («Yodgor» 71).

Ma‘lumki, **gandiraklamoq** fe‘li **muvozanat saqlay olmay, chayqalib, entak-tentak qadam tashlab yurmoq** ma‘nosini anglatadi¹¹. Shoir bu so‘zni **til** so‘zi bilan semantik munosabatga kiritadi. Lekin tili **gandiraklab**, aytmoqchi bo‘lgan gapini aytolmas edi («Yodgor». 28).

sof lingvistik nuqtai nazaridan qaralganda **tili gandiraklab** so‘z birikmasi anormal holat, chunki semantik moslashuv talabiga ko‘ra **tili** so‘zi **aylanib - aylanmay** so‘zi bilan semantik valentlik hosil etadi. Bu birikmadagi **gandiraklab** so‘zi o‘zi bog‘langan so‘z ifodalaydigan tushunchani ta‘kidlab ko‘rsatadi. Bu ta‘kid ayni birikmaning g‘ayriodatiyligiga ko‘ra yana ham kuchayadi. Yana shuni ta‘kidlash joizki, **tili aylanib // aylanmay** birikmasiga qaraganda **tili gandiraklab** birikmasida emotsionallik kuchli.

Shoir **karvon** so‘zini semantik munosabatga kirishmaydigan **turnalar, g‘ozlar** so‘zlari bilan bog‘laydi: Osmonda shimoldan janubga qarab Somon yo‘li bo‘ylab **turnalar, g‘ozlar karvoni** uchib o‘tadi («Yodgor» 42). **Karvon uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi hayvonlar, aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar to‘dasi,**

¹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. Москва: «Ўқитувчи». 1981.184-бет.

qatori¹² ma`nosini ifodalasa-da, shoir keng iste`moldagi bu so`zni yuk va odam tashimaydigan turna, g`oz so`zlari bilan semantik munosabatga kiritib, obraz va manzara yaratishda foydalangan.

O`zbek adabiy tilida **shod, xursand** ma`nosini ifodalaydigan **chog`** so`zi **vaqti chog`, dimog`i chog`, ko`ngli chog`** so`z birikmalarini hosil etsa-da, lekin **shod uy, xursand uy** so`z birikmalarini hosil etmaydi. Shoir esa bu so`zni semantik munosabatga kirishmaydigan **uy** so`zi bilan o`zaro bog`laydi: men seni kim ko`rganga maqtab orqangdan ko`rpacha soldirib yurgan bo`lsam, ammingning qiziga sovchi yuborib unashtirib qo`ygan bo`lsam, sen juvormag axir **chog` uyimga** onasining tayini yo`q bolani ko`tarib kelsang («Yodgor» 12).

Yuqorida ko`rib o`tilgandek, G`afur G`ulom ijodida keng iste`moldagi so`zlar ham muayyan stilistik ta`kid oladi. Buni quyidagi misolda ham kuzatish mumkin: Otpuskaga ketuvchilar uchun maxsus chaqirilgan kechada o`rtoqlar bilan, muallimlar bilan, bizni tarbiya qilgan komandirlar bilan **issiq-issiq quchoqlashdik**, o`pishdik, xayrlashdik («Yodgor» 18).

Mazkur matndagi **issiq-issiq** so`zi **quchoqlashmoq** so`zi bilan semantik valentlik hosil etmaydi. Chunki **issiq-issiq** so`zi **yemoq, ichmoq** so`zlari bilan semantik munosabatga kirishadi. Lekin shunday bo`lsa-da, shoir **issiq-issiq** so`zini **quchoqlashmoq** so`zi bilan bog`lab badiiylilik hosil etgan.

Shoir asarlari tilida kisavur, o`g`ri, qo`li egri lug`aviy birliklari ham semantik jihatdan farqlanadi: Kisavur bilan o`g`rining tavbasi tavba emas («Shum bola». 157). Birorta o`g`ri va qo`li egrining haddi bormikin, bir musulmonning mulkiga, nomusiga taaddi qilsa («Shum bola» 258). Bu o`rinda shoir qo`li egri deganda kisavurni nazarda tutgan. Hozirgi o`zbek tilida esa qo`li egri iborasi o`g`ri hamda kisavur ma`nosini anglatadi.

Shuningdek, asar tilida bir xil lug`aviy ma`noga ega bo`lgan nonvoylik hamda nonvoyxona so`zlari qo`llangan: Urush bo`lgani bilan, narx-navo oshgani bilan, nonvoyxonalarni yer yutib ketgani yo`q.

¹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. Москва: «Рус тили» 1981. 369-бет.

Ro‘molchani yelkaga solib, **nonvoylikka qarab** yugurdim («Shum bola». 261).

Nonvoylik so‘zi «**O‘zbek tilining izohli lug‘ati**»da tarixiy so‘z sifatida berilgan, **non yopiladigan va sotiladigan joy** ma‘nosini anglatadi. Nonvoyxona so‘zi non yopiladigan joy, korxona ma‘nosini ifodalaydi¹³.

Mazkur izohlardan anglashiladiki, nonvoyxona va nonvoylik so‘zlari semantik jihatdan farqlansa-da, G‘afur G‘ulom asarida esa ulardan variant sifatida foydalangan.

Shuningdek, asar tilida ishlatilgan ba‘zi so‘zlarning ma‘nosi haqida fikr bildirmoqchimiz. Qiyoslang:

1. Men jimgina quloq solib, o‘choqning yoniga cho‘kkayib, o‘t qalashtirmoqqa boshladim («Shum bola». 137)
2. O‘tning taftiga lippamdagi yog‘ erib, pochamdan oqmoqda ekan («Shum bola». 137).

Yuqorida keltirilgan 1-misoldagi o‘t so‘zi o‘tin so‘zi o‘rnida qo‘llangan bo‘lib, qalashtirmoq so‘zi semantik valentlik jihatidan o‘tin so‘zi bilan bog‘lanadi.

Shuning uchun bu misolda o‘tin so‘zi qo‘llanishi lozim edi, deb ayta olamiz.

O‘zbek adabiy tilida ma‘lumki, **biror joyda yoki biror ish-vazifada uzoq tura olmaydigan, qo‘nimsiz** ma‘nosi **tuprog‘i yengil** iborasi bilan ifodalanadi¹⁴. Shoir bu iborani qayta ishlaydi va **qiz bolaning tuprog‘i yengil bo‘ladi** tarzida qo‘llab, «qiz bola biror yigit bilan gaplashsa tez gap-so‘z bo‘lishi mumkin» ma‘nosini obrazli va ta‘sirchan ko‘rsatishga erishgan. Bizning ko‘pincha birga yuruvimiz Saodatning otasiga ham eshilibdi. U akam bilan uchrashab: «Endi, bular ishning bo‘lgani yaxshi, **qiz bolaning tuprog‘i juda yengil bo‘ladi**. Jo‘ravoy bu yil o‘qishdan qola qolib, to‘yni qilib ketgani ma‘qul bo‘lar edi. «To‘y qachon?», deb so‘rayverganlaridan juda zerikdim», -degan emish («Yodgor» 36).

Shoir «Yodgor» asari tilida **uyga berkitib qo‘ymoq** birikmasini **o‘qishga ruxsat bermas edi** ma‘nosida qo‘llaydi. Biz buni matnga bog‘lasak, fikrimiz

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. Москва: «Рус тили». 1981. 506-бет.

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том. Москва: «Рус тили». 1981. 247-бет.

yanada oydinlashadi: Sizga bir yangi xabar: o‘zingizga ma`lum, men boshlang‘ich maktabni bitirgandan keyin, ota-onam o‘qishimni davom ettirishimga rozilik bermay, **uyga berkitib qo‘ygan edilar**. Bu yil nima uchundir, yo menga rahmlari keldimi, yo o‘rtoqlarimning iltimoslarini qabul qildilarmi, **o‘qishimga ijozat berdilar** («Yodgor». 23). Mazkur matndagi **uyga berkitib qo‘ymoq** birikmasi so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, uni **o‘qishimga ijozat bermadilarsh** tarzida qo‘llagan. Shoir ketma-ket qo‘llangan mazkur sintaktik qurilmalarda **uyga berkitib qo‘ydilar** va **o‘qishimga ijozat berdilar** birliklaridan kontekstual antonim sifatida foydalangan.

II BOB. G‘AFUR G‘ULOM NASRIDA FRAZELOGIZMLAR QO‘LLANILISHI MIQYOSI VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

So‘zlovchining his-emotsiyalarini ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar; emotsional bo‘yoqdor so‘zlar emotsional leksikani tashkil etib, ularsiz badiiy asarni tasavvur etib bo‘lmaydi.

O‘zbek tilining emotsional leksikasi ma‘lum darajada tadqiq etilgan.¹⁵

Bo‘yoqdor leksik qatlamga doir so‘zlar voqealikka so‘zlovchining ikki xil sub`ektiv emotsional munosabatini ifodalaydi:

1) ijobiy emotsional munosabat; 2) salbiy emotsional munosabat.

Ijobiy emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar so‘zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bo‘lgan turlicha ijobiy munosabatini foydalaydi.¹⁶ Masalan: Uning ovozi chertilgan jonon kosaday jaranglar edi. («Yodgor». 3). Yoshlik kitobining **zarhal** sahifalarida yurak tepishlari qayd qilingan bu satrlarni umrday mayda to‘lqinlar bilan oqib borayotgan ariqchaga termulib tingladim («Yodgor» 4). Xast eshonning kichik xotinlari o‘n yettiga yetar-yetmas, juda ham **quling o‘rgilsin** («Shum bola». 188). **Oyoq – qo‘ling chaqqongina epchil** yigitsan («Shum bola» 189). Yurak urushlari bilan **zoriqib-zoriqib** kutganim-Saodat! («Yodgor». 40).

G‘afur G‘ulom asarlari tilida ijobiy munosabatni anglatuvchi quyidagi so‘zlar- **jonim, mulla aka, taqsir** so‘zlari hurmat ma‘nosini ifodalasa, **do‘ndiqqinam, oppoq o‘g‘lim, bolaginam, onang o‘rgilsin, xolaginang o‘rgilsin, xolang aylansin, baraka topgur, bo‘yingga qoqindiq, aylanay, tentakkinam, bolaginam, o‘rgilay, xudo urgan qo‘li ochiq**,¹⁷ **bo‘yingdan girgitton bo‘lib ketay, balli azamat, qo‘zichoqlarim. Qarog‘im, toylog‘im, chirog‘im, qo‘ling o‘rgilsin,**

¹⁵ Абдуллаева А. Эмоционально-экспрессивная лексика в современной узбекской прозе. Автореф. Канд. Дисс. Самарканд, 1968; Абдуллаева Л. Стилистическая дифференциация лексики узбекской художественной литературы. Автореф. Канд. Дисс. Ташкент 1980.

Ушбу кимс фил.фан.номзоди М.Холбоева тўплаган (картотекаси) мисолларидан фойдаланиб, ҳамкорликда таҳлил этилди.

¹⁶ Шоабдурахмонов Ш. Ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи, 1980, Б. 134.

¹⁷ Мисоллар қуйидаги асарлардан олинди: Ғафур Ғулом. Ёдгор. Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

*opaginang o'rgilsin, otang aylansin, oyimchaxon, oyimposhsha, oppoqqinam, baraka topgurlar, bo'tam*¹⁸ kabi lug'aviy birliklarda erkalash ma'nosi mavjuddir.

Salbiy munosabatni ifodalovchi lug'aviy birliklarda so'kish, haqorat qilish, mensimaslik. Kinoya, piching, kesatiq ma'nolari anglashiladi: Bu mollarni yoyib o'tirgan chayqovchilarning *afti basharasini* aytmaysizmi! *Bet*lariga bu hafta ichi suv tegmagan, soqollari ustaradan ozod, *basharalaridan* «nur» yog'ilib turadi («Shum bola». 144). Bir og'iz xabar berib qo'ysang *o'larmiding!* («Shum bola». 146). Xudoyo, seni *otangning arvofiga soldim* («Yodgor». 12). –Kishi qarigandan keyin *ezma* bo'lib qolar ekan-da, mening bolam, degandan keyin. Mening bolam («Yodgor». 12).

G'afur G'ulom asarlari tilida salbiy emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega lug'aviy birliklar quyidagicha: *bevafo, yigitcha, avramoq, tantiq, satang, chayqovchi, laqalov, juvon tushmagur, xudo urgan, o'jar, beboshqovoq, o'limtik, yetti otamning go'riga gisht qalamoq, paranjini tunga ayirbosh qilmoq, chakagini o'chirmoq, mayna bo'lib qolmoq, obi diyda qilmoq, javramoq, yigit o'lgur, juvonmarg, tusingni yel yemasin*¹⁹ ; *nomard, past. O'lgur, zumrasha, ahmoq, makkor bashara, basharasi behayo. Haromi, dayus, padar la'nat, it xo'mrayish, oq qilmoq, bachchagar, nos bosgan, ko'zing ko'rsin, shum bola, ko'chmachi, manjalaqi, qiztaloq bola, xudo urgan, badbaxt, ziqna; xudo urgan odam, itdan tuqqan, qorning oshga to'ymasin, juvonmarg, bo'l, tering sangobda chirigur (sigir), go'shting olaqargaga xomtalash bo'lgur, devona (sigir) ablah. Lo'livachcha. O'lguncha ko'zi tor, ziqna, murdor, muloyim supurgi, sag'imoq, baqraymoq, izg'imoq, salanglamoq*²⁰ va b.

G'afur G'ulom asarlari tilida individual harakterdagi haqorat so'zlari ham uchraydi: -Xoy, *xaromi ko'cha*, yaxshi o'ylab ko'r, u yoq, -bu yoqqa olib qo'ygandirsan? –deb so'radi («Shum bola» 288).

Shoir nasriy asarlari tilini kuzatar ekanmiz, unda erkaklar hamda ayollar nutqida farqlanadigan quyidagi emotsionallikka ega bo'lgan haqorat so'zlarini

¹⁸ Гафур Гулом. Асарлар. Ўн томлик. Бешинчи том. Тошкент, 1973.

¹⁹ Мисоллар «Ёдгор» повестидан олинди.

²⁰ Мисоллар «Шум бола» дан олинди.

uchratdik. Erkaklar nutqida qoʻllanadigan haqorat soʻzlari: *bachchagʻar, haromi, oʻlgur, harom oʻlgur, itdan tuqqan, qorning oshga toʻymasin, juvonmarg boʻl, tustovuqqa oʻxshab tumshaymay oʻl, muloyim supurgi boʻlmay, germonning oʻqiga uchib ket, tuzim koʻr qilgur, xumpar, padarlaʼnat, padaringga laʼnat, ahmoq, manjalaqi, qiztaloq bola* va b.

Shuningdek, Gʻafur Gʻulom asarlari tilida haqorat hamda erkalashni ifodalovchi emotsional soʻzlarning yonma-yon qoʻllanganini kuzatamiz:

-Ha, *yetim, taylogʻim, qaysi goʻrlarda* besar-u somon *yoʻqolib ketding?* («Shum bola» 256). –Nima qilib *ivirsiyapsan, bolam?* («Shum bola». 290)

Ayollar nutqida emotsionallikni ifodalovchi haqorat soʻzlari keng qoʻllanadi: *oʻlgur, juvonmarg, zumrasha, yigit oʻlgur, betingni yel tusmasin, aldamchi, iflos, qoʻshmachi, satang, bemaʼni, dangasa* va b.

Tursun (parixonga taajjub bilan qarab turadi). *Aldamchi, iflos, qoʻshmachi, satang!* Tufuv!... (Chiqib ketadi.) («Erkimiz». 411).

Yuqorida sanab oʻtilgan emotsionallikni ifodalovchi haqorat soʻzlari badiiy asarda personajlarning xarakterini ochib berish maqsadida uslubiy vosita vazifasini bajaradi. Masalan, «Yodgor» asari personaji Joʻravoy nutqida haqorat soʻzlari ishlatilmagan. Faqat Mehrining «tuzogʻi»ga ilingan Joʻraning nutqida «kelishilganday» haqorat soʻzlari ishlatiladi: Yaʼni, «U meni *«chayqovchi»* deydi. Men uni *«tantiq, satang»* deyman». («Yodgor». 75)

«Shum bola» asarida qargʻish iboralari ayollar emas, balki erkaklar nutqida juda koʻp qoʻllangan. Asar qahramoni «Shum bola» nutqida sigirga nisbatan qoʻllangan qargʻish iboralari kitobxonning kulgusini keltiradi: *Goʻshting olaqargʻagʻa xomtalash boʻlgur*, men yetib borgunimcha oʻt chimdib turadi,... (215). Chunki, *ertaga egang oʻlgur*, tutqaloqli sigirni u oʻtlatgani olib borsa, choʻt qoʻltiqlab mehmondorchilikda yursam, degan fikr boshimdan ketmas edi (216). Shu ahvolda tipirchilib yotgan, *tering sangobda chirigur* sigir birdan irgʻib oʻrnidan turib, dumini xolda qilib bir qochib berdi (215). Lekin asar personaji Xoji bobo nutqidagi qargʻish iboralari «shum bola»ning nutqidagi qargʻishlardan katta farq qiladi: -Hali shunaqami? –dedi, -tuzim koʻr qilgur? (289). –Hu, javdiramay

ko'zing qursin (241). –Hu, muloyim supurgi bo'lmay, *germonning o'qiga uchib ket!* (256). –Hu, *tustovuqqa o'xshab tumshaymay o'l*, nimaga qarab turibsan...(284).

Ba'zi «qarg'ish iboralarning o'zi jonli nutqda ba'zan suyish, yoqtirish munosabatlarida ishlatiladi²¹: *Qizi tushmagur* ancha yetilib qopti-ya! («Yodgor».27). *Qurmagurning* ko'kragini qara, xuddi Hojimuqonning ko'kragiga o'xshaydi, boldirini qara! («Yodgor». 20).

Salbiy munosabatni ifodalovchi ba'zi bir xil so'zlar shaxs, predmet hamda hayvonlarga nisbatan qo'llanadi:

Qo'y degan *harom o'lgur* juda *ahmoq*, asov hayvon bo'lar ekan («Shum bola». 204). –Ko'r –ey, ey *harom o'lgurlar*, ko'r-ey-degan mungli ovozi eshitdim («Shum bola». 206). –Voy, *ahmoq*. Hozir saraton. Saratonda jiyda mevalari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi («Shum bola». 142). –Nima deyapsan, *haromi*, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib, mening birdan-bir boqib qo'yayotgan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar la'natilar? («Shum bola» 198). Biror soat *sanqiganimizdan* keyin, Omonning ketmoni bilan mening yog'och kuragimni sotishga ulguridik («Shum bola» 147). Echki bo'lmagandan keyin boshi oqqan tomonga *sanqib* keta berar ekan («Shum bola» 204).

Ma'lumki, suyeht ba'zan o'z g'azabini yumshoqroq, madaniyroq shaklda ifodalash uchun qurg'ur so'zidan ham foydalanadi. G'afur G'ulomning «Shum bola» asarlaridagi quyidagi so'z birikmaklari shu maqsadda qo'llangan: *sabzisi qurg'ur, yigit qurg'ur, mosh qurg'ur, to'ti qurmag'ur, choying qurg'ur. Qurg'ur // qurmagur* so'zi birikma tarkibida qo'llanib norozilik ma'nosini hosil etadi: bundan tashqari, *mosh qurg'ur*, bilmadim, qaysi toshloqda bitgan ekanki, Hadeganda ochila bermadi. (176). Tun-telpakni pushtaga qo'yib, sabzi kovlashga tushib ketdik. *Sabzisi qurg'ur* juda ham bitgan ekan, eng kichkinasi qayroq toshday (212).

²¹ Содикова М. Феъл стилистикаси. Тошкент: Фан, 1975. –Б. 91.

Ma'lumki, o'zbek xalqida qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar bilan murojaat etiladi. Shoir asarlari tilida **kampir, uka** so'zlarining bir qancha ma'nolarda qo'llanganligini kuzatamiz. Masalan: **uka** so'zi o'zbek tilida bir ota-ona o'g'illaridan kichigi (katta yoshdagi farzandlarga nisbatan) hamda o'zidan yoshi kichik yigit kishiga murojaat ma'nosini anglatadi:

Akam-ku orqavoratdan: «Bo'ldi, -deyar emish, -men bilan bordi-keldi qilmasin. Unaqa **ukam** yo'q», deb yurgan emish («Yodgor» 14). –Ey, **uka**, -dedi pochcham, -endi bizlarning vaqtimiz o'tib qoldi. («Yodgor» 37).

G'afur G'ulom asari tilida bu so'z davr tili ruhini aks ettirish maqsadida ham qo'llangan. Chunki asar yaratilgan davr tilida **uka** so'zi singilga nisbatan ham ishlatilib, jonli xalq tilida jins jihatidan farqlanmagan. Masalan: O'ninchi kunlarga borganda yig'lib yotgan bolani ko'rib, ukalarimni koyiyotganligini eshitib qoldim:

-«Hoy, Qumri axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku! Nonimni yopib olgunimcha ovutib turgin. Men hozir borib olaman».

Yoinki: «Abdug'ani, tura qol, oppoq o'g'lim, vaqtliroq borib, ukangning sutini olib kelib bermasang, kun qizib ketsa, olib kelguningcha aynib qoladi», deyar edi. («Yodgor» 28).

Mazkur matnga bog'lanib Jo'raning ukalari Qumri, Abdug'ani ekanligini bilib olamiz. Chunki asarda qo'llangan kampir tilidagi. «...bu kun ham ukalaringning kiri chala qoladigan bo'ldi-da» (9) gapi tarkibidagi **uka** so'zi Qumri hamda Abdug'anilarga nisbatan ishlatilganini ko'ramiz. Shuningdek, G'afur G'ulom mazkur so'zni urning xotiga murojaatida qo'llanganda ham, uning (xotinning) o'ziga nisbatan yoshi kichik ekanligini e'tiborga olgan:

O'rtog'im mening tinchlanganimni ko'rib xotinini qistay boshladi:

-Mehrixon. Hoy Mehrixon!**Uka**, kel, qo'y endi, sog'-salomat bo'lsa o'ynab-kulib katta bo'lib qolgandir, o'lib ketgan bo'lsa, ayb eski turmushning kishilarga kafan bichishida. Mana bu o'rtog'im doktor-o'zimizning hamshahar. («Yodgor» 47).

«Yodgor» asarida qarindoshlikni ifodalovchi **buvi, oppoq oyi, dada, amma, xola, pochcha, opa, aka, egachi-singil** kabi soʻzlar ham qoʻllangan. Bulardan **amma** soʻzi Joʻraning nutqida oʻz maʼnosida, **xola** soʻzi esa Saodatning nutqida oʻz maʼnosida qoʻllanmagan. Chunki Saodatning onasi Joʻraga amma, otasi pochcha; Joʻra bilan Saodatning onasi opa-singil boʻlmasa-da, Joʻraning onasiga Saodat **xola** deb murojaat etadi. –Saodat bolaginam ham vafolikkina qiz: ikki kunning birida, «**xola-xola**» deb holimdan xabar olib turadi («Yodgor» 30).

Shoir asarlari tilidagi personajlar nutqda ham qarindosh boʻlmagan shaxslarga murojaatda qarindoshlikni ifodalovchi soʻzlardan foydalangan.

Gʻafur Gʻulom asarlari tilida hurmatni ifodalovchi **oʻrtoq, oʻrtoq doktor, birodar, ogʻayni, taqsir** kabi emotsional soʻzlar erkaklarga murojaatda qoʻllanadi.

Erkalovchi-emotsional leksika uch guruhga ajratiladi.²²

1. Qarindoshlik munosabatini ifodalagan soʻzlarning erkalash, kichraytirish hamda egalik affikslari bilan qoʻllanishi keng kuzatiladi. Masalan: -Ninni, ninnigina, **nevaraganamdan** oʻrgilay, yigʻlmasin, yigʻlmasin. Mana hozir buvingiz qoʻlini artadi, doʻndiqqinam, oʻzim bagʻriginamga bosaman! («Yodgor». 9). Mazkur matnda kampir (Joʻraning onasi)ning nutqidagi **nevaraginam** soʻzida erkalash shakli **(-gina)** hamda «egalik affiksi **(-m)** hissiy munosabatni ifodalab, hissiy taʼsirchanlikni oshiradi»²³. Gʻafur Gʻulom «Yodgor» asarida erkalovchi – emotsional soʻzlardan uslubiy vosita sifatida shu darajada qoʻllaydiki, hatto onasi nomaʼlum boʻlgan «**nevarasi**»ga mehri tushmasdanoq, uning bolajon ayol ekanligini koʻrsatish maqsadida erkalash shakli va egalik affiksini oʻrinli qoʻllagan:

-Bolaginamning tagi ham boʻkib ketibdi («Yodgor» 13).

Asarda bunday shakllar koʻp qoʻllangan:-Saodat **bolaginam** ham vafolikkina qiz... («Yodgor» 30). «Voy, **xolaginang** oʻrgilsin, omon boʻlsang, bir kun yuvarsan», dedimda, unamadim («Yodgor» 30).

²² Абдуллаева Л. Стилистическая дифференциация лексики узбекской художественной литературы.

²³ Қиличев Э.Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992. –Б.14.

Gʻafur Gʻulom ijodida oʻzbek adabiy tilidagi *qoʻli gul* iborasi *qoʻli gulgina* shaklida qoʻllangan: Baraka topgurning *qoʻli gulgina* («Yodgor» 30). –gina affiksi koʻchma maʼnoli tuyuq soʻzi bilan ham qoʻllangan: Sendan qoladigan *tuyoqqina* («Yodgor» 14).

Shuningdek, Gʻafur Gʻulom asarlarida salbiy munosabatni ifodalovchi *gul*, *tentak* soʻzlarini –gina affiksi bilan qoʻllab, erkalash maʼnosini anglatadi: Men laqalov, *gulgina* banda, laqqa uchdim («Yodgor» 7).

Tentakkinangiz savlatlikgina yigit boʻlib qaytdi –ya, sallotlikdan («Yodgor» 16).

–gina affiksi kinoya maʼnosini ham ifodalaydi: Ana shu yallachilikning pulidan *erginamiz* Rahmat xoji bunchalik errayim boʻlib yuribdi («Shum bola» 250).

Egalik affiksi kishi ismlariga ham qoʻshilib yaqinlik maʼnosini anglatadi: Yoʻq, bu –mening *Saodatim!* Vafoli *Saodatim!* («Yodgor» 41). Men *Joʻra akamlarga* xat yozmoqchiman, gap-mapingiz bormi, qoʻshib yuboray, dedim («Yodgor» 25).

Gʻafur Gʻulom hurmat hamda erkalash maʼnolarini ifodalash uchun –jon, –xon, –boy affikslaridan ham foydalangan: Uyda senlar turib, men xizmat qilib yuraymi? *Joʻravoy* boʻlsa-oʻzimizniki («Yodgor» 27). –*Otajon*, musofirman, – dedim («Shum bola» 171). –Mana shu yorugʻ yulduzning oti nima, *otaxon?* («Shum bola» 228).

Asarning bir oʻrnidagina *Yodgor* soʻzi erkalash affiksi –boy bilan qoʻllangan: Menga hurmatan kampir unga «Yodgorvoy, Yodgorvoy» deb ism qoʻya boshladi («Yodgor» 14).

Shuningdek, asarda Mehri hamda Mehrixon antroponimi qoʻllanganki, uning tarkibidagi –xon affiksi erkalash –hurmat maʼnosini ifodalaydi: –Oʻrtogʻim soʻzini boʻlib, xotiniga qaradi: –Aytaveraymi, *Mehrixon?* («Yodgor» 45).

3. Gʻafur Gʻulom asarlari tilida emotsional-boʻyoqdor soʻz va soʻz birikmalarining asosiy qismini erkalash leksikasi tashkil etadi. Ayniqsa, «Gʻafur

G'ulom «Shum bola» povestida bunday leksikadan mohirona foydalangan».²⁴ Bular quyidagilar: *jonim, bo'tam, aylanay, toylog'im, qo'zichoqlarim, chirog'im, oppoqqinam, o'rgulay, bo'yingdan girgitton, girgitton bo'lay, oyimchaxon, oyimposhsha, otang aylansin* va b. Bunday erkalash so'zlaridan ham yozuvchilar turli uslubiy maqsadlarda foydalanadilar. Masalan: *qo'zichoq* so'zi ko'chma ma'noda 3-shaxs shaklida bolalarga nisbatan qo'llanadi: Sen hafa bo'lsang, men hafa bo'laman-da, *qo'zichog'im* (X.N). G'afur G'ulom esa bu so'zni mullabachalarga nisbatan qo'llagan:

Xutbani tugatgach, xonaqohni to'ldirib o'tirgan mullabachalarga qarab bir nutq irod qildi:

-*Qo'zichoqlarim*, ey fuqaroning bolalari! («Netay». 30). Qani ayting, *qo'zichoqlarim*, bu bizday fuqarolarga marhamat emasmi edi? («Netay» 31).

Shoir ko'chma ma'noli *qarog'im* so'zini faqat qozoq ayoli nutqida qo'llagan: -Uy –bay, *qarag'im*, to'g'ri pok qalbingdi ne qilayin («Shum bola». 148).

Emotsional-ekspressivlikni ifodalashda istehzoli, kinoyali so'zlarning ham muhim o'rni bor. Ayniqsa, «Shum bola» asarida qo'llangan piching, kesatikka boy bo'lgan emotsional-ekspressiv leksika muallifning mohir so'z ustasi ekanligidan dalolat beradi. Masalan:

Eshonoyim eshakning bu harakatidan juda ham zavq bilan lazzatlanib, xuddi eshakning bo'ynidan quchoqlab olgunday bo'lib, unga xushomad qilar va shirin so'zlar bilan uni olqishlab, yer va ko'kda yo'q sevinar edi:

-Voy, *opaginang o'rgulsin!* Voy, *quloqlaring*ning qimirlashiga *o'zginam girgitton bo'lay!* Uni qarang, oyimchaxon, *quloqlari* biram *chiroyli* qimirlaydiki... Voy, *eshakjonga jonginamni qoqay!* («Shum bola» 191).

G'afur G'ulom ijodida ijobiy munosabatni ifodalovchi *opaginang o'rgulsin, quloqlari, o'zginam girgitton bo'lay, eshakjonga jonginamni qoqay* kabi lug'aviy birliklarning eshakka nisbatan qo'llanishi, shuningdek eshakni erkalatish maqsadida unga *-jon* affiksini qo'shib, undan stilistik vosita sifatida foydalanganini kuzatamiz.

²⁴ Абдуллаева Л. Кўрсатилган тадқиқот. –Б. 24.

O'zbek adabiy tilida **kuyov** so'zi qarindoshlikni ifodalab, qizning eri (qizning ota-onasiga nisbatan) hamda endi uylanayotgan yoki yangi uylangan yigit (o'z qaylig'iga, xotiniga nisbatan) ma'nolarini anglatadi. «Yodgor» asarida bu so'z mazax ma'nosida qo'llangan. Chunki asar syujetidan ma'lumki, Jo'ra uylanmasdan «o'g'illi» bo'lib qoladi: Avvalgiday, «Ha, **kuyov**, o'g'ilcha katta bo'lib yuribdimi?», deb mazax qilishmaydi (16).

Ma'lumki, ba'zi so'zlar emotsional-ekspressivlikka ko'ra neytral bo'lib, faqat matn qurshovidagina ekspressivlikka ega bo'ladi:

-Yuragingiz dov bermayaptimi, yigitcha? Do'ppi, **kiyiksavlat**, deng-chi, bo'lmasa?... («Yodgor».5)

Mazkur matnda yigit kishi aytgan va'dasida (so'zida) turadi ma'nosi anglashiladi.

Pushaymon ohangi bilan:

-Essiz, essiz yigitlik. Zap odamidan xolis xizmat so'ragan ekanman-ku; bo'ldi-ey, essizgina sirlarim. Keling, hali ham bo'lsa **paranjini tunga ayirbosh qilamiz** birikmasi ham yigit emas ekansiz, ya'ni gapingizda turmayapsiz ma'nosiga ishora etgan. Shuningdek, G'afur G'ulomning «Shum bola» asari tilidagi «quvnoq hazillar insonning qiyin psixologik holatini yumshatadi va uni ruxiy zarbadan olib chiqadi. Badiiy asarda muallif hazil so'z va iboralarga ko'proq murojaat etadi»²⁵. Asar tilida **arzonqul** kishi, **devona** sigir, **tentak** sigir, **jinni** sigir, **sarkash** ishtaha, **bedavo** qorin, **moshkichiripaz** xotin, og'ziga kelganini **o'tlasin**, **yo'g'on** duo, ovqatning **xashakiroqligidan** taajjublanmoq, **zotdor** qushlar, **tagi ko'rgan** qushlar, **qashqa** pashsha, nam tortib qolmoq (xijolat tortib qoladi), sog'inib **ichagimiz uzildi** va b. Ba'zi kesatik, pichinglar kitobxonning kulgusini qo'zg'atadi. Masalan: Eng oxiri uzoq muntazirlik va azoblardan keyin **hurmatli moshkichiri** tayyor bo'ldi (176).

²⁵ Казаков Ш. Семантико-стилистические особенности эмоционально – оценочной лексики драм Хамзы. Автореф. Дисс.канд.филол.наук. Тошкент, 1990.-С.19.

Men bechora ***moshkichirining azobini*** bekami-ko'st tortganim holda xursandirman (176). Lekin o'zingiz o'ylang, birovni tandirga qamab, ustiga o'tirib muzika chalsin, deb ***qaysi qonunda yozilgan ekan?*** (177).

G'afur G'ulomning so'z ustasi ekanligi uning yangi, original ifodalarni yaratishidadir. Masalan: Domla olomonning orasida qolib ketdi. Nima bo'ldi, bilmayman. ***Tirik bo'lsa biror go'rdan chiqib qolar***, o'lgan bo'lsa xudo rahmat qilsin («Shum bola». 170). Og'zim, jag'im, tishim jodidek, istagan ***xashakni qirqib chiqarishga yaraydi*** («Shum bola». 181). Bittang bu yerda qol, bittang ***ota meros, boshing toshdan bo'lgur*** sigirim bor, shuni olib chiqib, ekindan bo'shagan yerning uvatlarida yetaklab yurib boqib kelasan, ... («Shum bola». 214). Omon ***sigir go'shti tilga kelganligidan*** qo'rqib ketib, qopni tashlab yubordi («Shum bola». 222).

2.1. G'afur G'ulom nasrida umumxalq frazeologizimlarning ishlatilishi va ularning asar badiiyligini ta'minlashdagi roli

G'afur G'ulom nasriy asarlari tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari jihatdan kuzatilsa, dastlab genetik jihatdan so'zlar 2 guruhga – o'z va o'zlashgan qatlamga bo'linadi. Til lug'at sostavini tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tekshirganda, avvalo tarixan kelib chiqishi nuqtayi nazaridan o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar belgilab olinadi.²⁷

Bunday so'zlar ijodkor asarlari leksikasining asosini tashkil etgan. Yozuvchi asarida sof turkiy so'zlarni o'rinli ishlatgani tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanganligidan dalolatdir. Shuningdek, yozuvchi asarlarida o'zlashgan qatlam so'zlarini ham nihoyatda mahorat bilan ishlatilganligi ajralib turadi. Shoir har bir so'zni qo'llashda asar matni ruhidan kelib chiqib badiiy tasvir vositasi sifatida adabiy tilning leksik imkoniyatlari hisoblangan omonim, sinonim so'zlardan mahorat bilan foydalangan. Badiiy asar leksikasining ko'p qirraligi yozuvchining so'z boyligini namoyon qiluvchi yorqin misollardan biridir.

²⁷ Юқоридаги асар 56-бет.

Gʻafur Gʻulom nasriy asarlari leksikasini mavzuiy guruhlarga boʻlish shuni koʻrsatadiki, ijodkor oʻz asarlarida turli sohalarga oid soʻzlardan keng foydalangan. Badiiy asarning tematik jihatdan rang-barangligini koʻrsatish maqsadida ularni quyidagi guruhlarga ajratib koʻrsatdik:

1. **Atoqli otlar** kishi ismlari: imom Hasan, imom Husayn (145 b), Nabi mirshab (146 b), Jomil baqqol (146), Soyibnazar kuychi (150), Ilyos boʻrdoqi (130), Mirshab sulton (151) kabilar.

2. **Urugʻ etnik nomlar:** loʻli (146), qozoq (148), oʻzbek (150), rus (17), takaturkman (17), qirgʻiz (22) va boshqalar.

3. **Qavm-qarindoshlik terminlari:** ota (132), kampir (145), qiz (135), ona (136), singil, uka (136), bola (137), oyi (137), oʻrtoq (137), amma (137), er (137), pochcha (138), agʻayni (138), oʻspirin (141), oʻrtoq, boʻyinchadoʻz (145), ogʻa (11), jiyan (15), togʻa (15), amaki (15) kabilar.

4. **Inson aʼzolari:** burun (136), chakka, yuz (137), oyogʻ (139), but (140), ogʻiz (140), qorin (140), quloq (140), koʻz, qorachigʻ (141), bel (141), sagʻri (141), jussa (141), ichak-chavoq (144), dimogʻ (144), soqol (144), moʻylov (148), qoʻl (148), bashara (144), qosh (8), soch (8), tish (8), yagʻrin (9), koʻkrak (9), chaplash qoshli (11), quloch (11), panja (11), bormoq (11), bosh (11), koʻz (11), tizza (11), bilak (15) va boshqalar.

5. **Kiyim kichik atamallari:** olacha yaktak (135), surp yaktak (136), choʻntak (135), yeng (135), lipa (135), toʻpi-toʻppi (136), qalpoqcha (137), qoʻlqop (140), etak (141), poyma-poy sagʻri kovush (144), ishtonbogʻ, ishtonpocha (143), roʻmol (144), yeng (144), salloti shim (144), quroq (144), saxtiyon mahsi (144), laxtak, koʻylak-ishton (145), belbogʻ (147), kiyiz chakmon, namat qalpogʻ (150), koʻk movut shim (150), jamol (8), beqasam toʻn (9), qiyiq (9), surmarang shohi salla (18), koʻk movut kamzul (18) kabilar.

6. **Taom bilan bogʻliq nomlar va uning masalliq-lari atamallari:** palov, tuz, qalampir, masalliq (136), guruch, sabzi, goʻsht, yogʻ (136), qovoqsoʻmsa (136), piyoz (136) mayak (136), tuxum (148), xamir (137), qattiq (139), shovla (141), saqich (142), bukor, saqich, qora saqich (143), choy (148), burda non, soʻk qurt

(148), tuya qurt (148), tariq go'ja (148), qovoq zag'ora (148), jigar kabob (148), kartoshka somsa (148), oqshoq bo'tqa, omoch, bug'doy go'ja, tariq go'ja (148), uvra osh (148), zog'ora (149), achinqiragan uvra (149), qaymoq (149), muzdek ayron (150). Halfona (136), oshxona (11), bufet (11), piva, aroq, kon'yak, ichkilik va zakuska (11), sho'rdanak (12), kobili sho'rva (16), cho'zma gazak (17), shikoland (26), shampan (26), kaklik go'shti (26), manti (26), nos (26) kabilar.

7. **Joy nomlari:** Qo'qon (130), Toshkent (131), Tikonli mozor (131), Qurg'ontegi (131), Uzun (131), Qoratosh (134), Yalangqori (134), Olmazor (134), Qashqar (135), Irbit (135), Xitoy (135), Laylakmachit (135), sog'bon (137), Achhabod (141), Cho'limalik (145), Ko'kterak (145), Chin (146), Istanbul (146), Beshyog'och (150), Otchopar (17), Childuxtaron (17), Qizilqum (21), gunbazi Abdulla, Muzaffarxon sardobalari (21).

8. **Daryolar nomi:** Zolariq suvi (150), Qurum daryosi (131), Solor (9), Chotqol irmoqlari (22), Sir (daryo) (22), orol (22), hovuz (29) kabilar.

9. **Parrandalar, qush nomlari:** to'ti (129), kalxat (133), suttimi, baliqchi, chittak, qumri, itolg'imi, qirg'iy, miqqiy (133) zog' (133), dakang xo'roz (138), xo'roz, kaklik, bedana (138), sava, bulbul, mayna (138), qarchig'ay (21), lochin (22), kabutar (23) va boshqalar.

10. **Kasb-hunarga oid atamalar, mayda kasibliklar:** beshikchi, taroqchi, dukchi (131), meshkob, otboqar, hammol, so'fi, foytin, arqon to'lovchi, nog'ora-childirma qoplaydigan to'qimdo'z, chegachi (132), bo'yoqfurush (134), mo'ynado'z (138), chirog'bon (132), gazlamafurush (134), mumfurush (134) bo'yoqfurush (134), qintikar (135), ko'n, etik tikar (135), bo'yincha tikar (135), etikdo'z (135), mo'ynado'z (138), oshpaz (148) va boshqalar.

11. **O'yin nomlari:** kurash, botmon-botmon, oq terakmi, ko'k terak, qo'shin boshi, mindi-mindi, o'g'ri keldi, bekinmachoq (131), oshiq o'yini, yong'oq o'yini (133), to'n o'yini, yong'oq o'yini (131), o'q, kamalak otish, yalong'och poyga, ot o'g'risi (132), ramazon ayitish (132), it urushtirish (138), hushtakbozlik (150), mashq (9), garmon (13), sirk (20), devyatka, yigirma bir-karta o'yin turlari (21),

12. **Gul nomlari:** gulibeor, gulira`no, gulisafsar, gulhamishabahor, qo`qongul, qalampirgul, namozshomgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul (138).

13. **Uy-ro`zg`or buyumlari, xo`jalikka oid atamalar:**qozon, cho`mich (136), kerosin chirog`i (136), fonuspashsha (132), hurmacha (139), sopol tog`ora, tog`oracha, xumdon, xum, xurmacha xo`qa (144), kulcha sovun, yaxnak sovun, mum sham (144), ketmon (147), yog`och kurak (147), tovoq (148), arqon (149), mesh (139), chelak (150), yer tandir (136), xujra, ayvon (136), o`tinxona (136), o`choq (137), o`qlov, (xamir yoyg`ich) (136), cho`pqofiya, to`rqovoq (138), xo`rjin (145), ko`rpa-yastiq (15).

14. **Kundalik zarur buyumlar atamalari. Matall, yasama jismlar nomlari:** qulon-qo`rg`oshin (132), soat, muguz soqqa, yetti plikli kerosin chirog` (132), qo`g`irchoq (136), buxor tanga (139), ko`ndoq (139), kosa (139), qirmagul qoziq (140), kumush qoshiq (140), darvoza (141), savag`ich (141), galvir, gardish, yog`och shaqildoq, yog`och beshikcha (141), chirmandachi (142), kurak ko`rpa eyna (143), saqol taroq (143), ustara (144), gazcho`p (o`lchovmetr) (145), stol-stul (11).

15. **Mato, gazlama atamalari:** chit, bo`z, paplin, xushvaqt, chidaganga chiqargan, burgutchit, rohat-badan, madinalola surup, tik, shayton teri (145) poytavabop mol (gazmol), lunggibop mol (144).

16. **Uy va yovvoyi hayvonlar atamasi:** mushuk (132), ot (135), kulrang tovug` (136), ov tozi (139), ko`ppak, laycha kuchuk, baroq mushugi (138), yo`lpashsha (138), bit, burga (143), dangari pashsha (144), saman ot (148), tovug` (148), qo`y (149), to`qli (149), echki, uloq (150), sigir, buzoq, g`unajin, buqa, ho`kiz (150), qirchang`i ot (150), navruziy bedana (7), ilon (9), yilqi (21), qo`chqor (21), arslon (22).

17. **Son-sanoq, hajm, vaqt bilan bog`liq masofa, tomon, og`irlik, o`lchovli, birliklarini bildiruvchi so`zlar:** qadoq (142), mirkam ikki (143), ikki-uch (143), quyi, past, o`ng, chap (143), qadoq (sovun) (144), yetti iqlim (144), gaz (145), uch yarim so`m (145), chelak-chelak (148), bir tovoq (149), to`qqiz pul (149), bir miri

(149), qo'shoq-qo'shoq qo'ylar (149), mesh (150), hayomyon (151), o'n besh chog'lik tuya (227) kabilar.

18. **Savdo-sotiqqa oid atamalar:** bozor (145), rasta, mol, savdogar (143), attorlik (143), attorlik jihozi (143), «Bit bozori», rastasi (144), chayqovchi (144), ko'tarmachi (optom sotuvchi) (145), arzon (145), xaridor (145), laxtafurush (145), dastmoya (145), dallol (147), savdolahish (147), tanga (147), bozori kasod (147), naqd pul (148), bittangayi ashraf (148), sotuvchi (148), pattachi (149), jillob (150), aqcha (151), manat (12), kapeyka (12), so'lkavoy (13) va boshqalar.

19. **Daraxtlar, poliz ekinlari, mevalar:** qovun (138), jiyda (daraxt) (142), danak (142), qovoq (148), piyoz (149), tarvuz (149), o'rik (9), olma (9), bodring (16), barra piyoz, kashnich, rayhon (16), tol (31), terak (31), chinor (29), yaproq (30).

20. **Iqlim, fasl, hafta, kun, vaqt bilan bog'liq so'zlar:** saraton (142), kech (143), iqlim (144), juma, kun (143), savr oyi (7), qish (7), to'rt fasl (7), ko'klam (7), bahor (7) va boshqalar.

21. **Harbiy terminlar, qurol-yaroq atamalari:** sallot (144), qilich (150), tig' (8), qalqon (17), qilich-qalqon (17), bayroq (7), ikki boshli burgut haykal (17), izvosh (18), pochetnyy grajdan-Nikolay hukumati tarafidan berilgan mansab (18), unter-ofitser (18), chest bermoq (18), pogon, forma (18), ko'cher-maxsus harbiy arava-ulov (18), izvosh (18), soldat (19), xanjar (23), qilich (25), kamar (25), jazo otryadlari (32) kabilar.

22. **Bezak, oroyishga oid atamalar:** ko'zmunchoq (143), dumaloq upa (143), «Yo Ali» degan tang'ali kumush uzuk (151), durri Adan (8), la'l (8), qora xol (8), surma (8), oltin girdob (9), oltin qafas (ko'ngil) (9), zarhalli (10), sipohlik (18), oltin hoshiyali yoqut tugma (18), oyna (25), parto'shak (25), fil tishidan bezatilgan xitoy stoli (25), oltin qo'ndiq (25), marmar dasta (25), chinni qalpoqli lampa (25).

23. **Kasallik, dori-darmon atamalari:** o'ldirilgan simob (143), qo'tir yara (143), indov yog'i (143), xun(i) yog'i (yaraga qarshi) (143), mozi, zanjabil, sanoyi makka, kuchala (143), halilayn zang (quvvat dori) (143), balzam moy (yara dori),

tomir dori (143), qalampir munchoq (143), isitma (15), yo'tal (15), toyib (15) kabilar.

24. **Kitob, asarlar, badiiy janr, shoirlar taxallusi:** qissasul anbiyo (143), huriliqo (143), she'r (8), misra (9), ohang (9), hajvi igchi eshon va Zavqiy (34), Bachchag'ar satirik she'ri (35), muqimiy, Nisbatiy, Ulfat, Zavqiy (35) va boshqalar.

25. **Koinot va tabiatga oid atamalar:** yomg'ir (7), shabnam (7), havo (7), quyosh (7), ko'k (osmon) (7), nim oy (8), but oy (17), tog' (20), ufq (21), maysa (21), shabada (21), izg'irinli vodi (21), qora bulut (22), tutun (23), oqshom (23), qorong'u kecha (23), kuz (29), shom (29), shafaq (29) kabilar.

26. **Inson holati va kayfiyati bilan bog'liq so'zlar:** kulgan qiz (7), sho'x (7), sipohlik (7), vazminlik (7), buydoq qahqaha (7), sayyoh oshula (7), ishvali chaq-chaq (7), mast hayqiriq (7), chapani o'spirin (8), raqiblik (8), topishmoq (8), mushtlashmoq (8), dildor amri (8), haqoratli qalb (8), ko'ngil yig'lashi (8), ishvali ko'z (8), kulayotgan yuz (8), hayqiriq (9) va boshqalar.

27. **Mahkama, unvon, daraja va huquqqa oid so'zlar:** (Komil) dahvoshi (16), (Soyib) yuzboshi, mahkama, Chorsu (16), janggoh (16), Hadra rasta oqsoqollari (16), oqsoch (14), qorovul (16), savdo sarkorlari (16), Ellikboshi (16), mahalla imomi (16), pochetniy grajdan – Alixo'ja Eshonga berilgan unvon (18), gubernator (18), farmon (18), janob (18), ad'yutant (18), knyaz (18), qozi (18), pristav (18), gubernator (18), дума (19), boyonlar (19), sarkor (20), mir (20), vazir (25), sarkarda (25), yo'l ruhoniylari (25), o'zga ulug'lar (25), Stantsa nachal'nigi (28), gorodovoy (28), atrof, qishloq volostlari (28), mulozim (28) va boshqalar.

28. **Diniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar:** musulmon (16), imom (16), machit (17), Shashqol domla (17), xonaqoh (17), «Nusrah» -qur'on surasining qisqargan nomi (17), Taborak (17), hazrat (18), taqdir (18), mullavachcha, domla (19), «Lo iloha» (25), azon (29), faqih (29), mufti (29), a'lam (29), mudarris (29), avom (29), so'fi (30), xonaqoh (30), fотиha (30), qori bola (30), qur'on tilovati (30), duoi xolis (30), xutba (30), farzi ayn (30), sidqi ixlos (30), eshon (31), murid-u muxlis (31) kabilar.

2.2. G‘afur G‘ulom nasrida muallif frazeologizimlarni qo‘llanilishi va ularning asar badiiyligini ta’minlashdagi roli

Leksika tilshunoslikning boshqa sohalariga nisbatan tez o‘zgaruvchanligi bilan xarakterlidir. Tilning boyishi yangi so‘zlarning kirib kelishi, ma’noning kengayishi yoki torayishi shuningdek, ularning shaklan va mazmunan eskirishi faol qo‘llanishdan passivlanishga tomon o‘tishi kabi o‘zgarishlar natijasida ko‘rinadi. Har holda eskirgan so‘zlar favqulotda butunlay iste’moldan chiqib ketmaydi. Bu esa yozuvchi va shoirning o‘ziga xos uslubi bilan bog‘liqdir.

Iste’mol doirasi chegaralangan leksika jumladan, eskirgan so‘zlar xususida rus tilshunosligida ham ba’zi bir qarashlar mavjud.. Arxaizm va istorizmlar umumiy tarzda eskirgan so‘zlar sifatida qayd etilgan.²⁸

So‘nggi yillarda sistem tilshunoslikning maxsus yo‘nalishi tarixiy tilshunoslik tilning har bir birligini mustaqil holda olib, davrlar bo‘yicha uning taraqqiyotini o‘rganadi, o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlab boradi. Sistem leksikologiya esa ushbu lug‘aviy birliklar orasidagi munosabatlarni aniqlaydi, ularning hozirgi mohiyatini ochishga harakat qiladi.²⁹ Arxaiklashgan so‘zlarning sinonimik qatorlaridan birining asosiy turkiy ekanligi, ikkinchisining arab tiliga oidligi, uchinchisining eroniyligi va boshqalarining esa o‘zbek shevalaridan olinganligining ahamiyati yo‘q.³⁰

Ijodkor, ayniqsa o‘zining tarixiy mavzuga oid asarlarida o‘tmish davr ruhini aniq ifodalash maqsadida eskirgan so‘zlardan foydalanadi. Bu esa uning so‘zdan foydalanish uslubini o‘ziga xosligini belgilashda, personajlar nutqini individuallashtirishda qo‘l keladi.

Eskirgan so‘zlarni ilmiy tahlil etish faqatgina ijodkor tili uslubini aniqlash uchungina muhim bo‘lmay, balki, yozuvchining tarixiy mavzuga bag‘ishlangan maxsus asari tili o‘zgachaliklarini ko‘rsatish, qolaversa, eskirgan so‘zlarning

²⁸ Шаинский Н.М. Лексикология современного русского языка. М, «Просвещение» 1972 стр.-144.

²⁹ Неъматов Х, Расулов Р. Язбек тили систем лексикологияси асослари – систем лексикология ва тарихийлик. Т, Ўқитувчи. 1995. 35-бет.

³⁰ Юқоридаги асар. 35-бет.

etimologiyasini aniqlashga ham imkon beradi. Bular davr tili nuqtayi nazardan chegaralangan leksik qatlamga mansubligi, hozirda baʼzi sheva va dialektlarda saqlanib kelayotganligi, zamonaviy til manbai sifatida yangi maʼnoda ishlatilayotganligini ham aniqlashga yordam beradi. Oʻzbek tili leksikasida eskirgan soʻzlar birmuncha oʻrganilgan³¹ boʻlsa-da, har bir badiiy asar tili doirasida maxsus tadqiq etilmagan.

Eskirgan soʻzlarning asosini tashkil etgan istorizm va arxaizmlar funktsional jihatdan chegaralangan leksik qatlamga mansub boʻlib, faqat arxaizmlargina oʻzining sinonimik qatoriga ega.³²

Ilmiy adabiyotlarda, narsa-predmet yoki hodisa zamonaviy boʻlib, uning oʻtmish nomi yoki atamalaridan biri isteʼmoldan chiqadi, eskiradi, deyilgan.³³ Arxaik soʻz va formalarning oʻz muqobillari boʻlishi bilan istorizmdan farqlangan holda ular eskirgan soʻzlar sifatida badiiylilikni oshirishda, oʻziga xos uslub yaratishda real tarixiy voqea-hodisalarni konkret tasvirlash imkonini koʻrsatadi.³⁴

Eskirgan, shu bilan birga yangi kirib kelgan soʻzlarni sinonimik qator sifatida almashlab qoʻllanilishida Gʻafur Gʻulom nasriy asarlari tili leksikasi oʻziga xosdir.

Soʻz sanʼatkori tomonidan ishlatilgan soʻzlarning aksariyatini qoʻllanish doirasi chegaralanmagan umumisteʼmoldagi leksika tashkil etib, ular oʻzbek tilida soʻzlashuvchilarning barchasi tomonidan keng qoʻllanadi. Lekin shu bilan birga shoir asarlari tilida isteʼmol doirasi chegaralangan leksika ham mavjud boʻlib, ular badiiy asar tilining jozibadorligini oshirishda muhim oʻrin tutadi. Gʻafur Gʻulom asarlari tilida eskirgan soʻzlar-istorizm va arxaizm, dialektizm, professionalizm (kasb-hunar leksikasi), jargon, argo hamda vulgarizmlarni koʻplab uchratamiz. Ijodkor asarlarida qoʻllangan soʻzlarni ham ilmiy tadqiqotlarda tasnif etilganidek

³¹ Қаранг: Муталибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. Т: 1959, 150 бет, раҳматуллаев Ш.У. Арзаизм ва историзм. Научные труды. ТашГУ. Вып. 211, 1963, Қиличев. Э.Бадий тасвирнинг лексик воситалари. Т: Фан, 1982, Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. Т. Фан. 1989. 42-бет. Ўзбек тили лексикологияси. Т: 1981, 148-бет.

³² Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т. Ўқитувчи. 1986. 41-бет.

³³ Ўзбек тили лексикологияси, Т. 1981. 147-бет.

³⁴ Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. Т. Фан. 42-бет.

keng iste`moldagi leksika va iste`mol doirasi chegaralangan leksika kabi guruhga ajratish mumkin.³⁵

Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan istorizmlar va arxaizmlar iste`mol doirasi chegaralangan leksikaga mansub bo'lib, ular G'afur G'ulomning «Shum bola», «Netay», «Tirilgan murda» kabi nasriy asarlarda davr koloritini yaratish maqsadida qo'llangan.

Istorizmlar tarixga oid narsa-hodisalarni bildiruvchi so'zlar bo'lib, G'afur G'ulomning «Netay» nasriy asarlarida ko'plab uchraydi. Istorizmlarning stilistik jihatdan qo'llanishiga ko'ra quyidagi guruhlarga jaratish mumkin:³⁶ 1) odamlarning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra nomlanishi; 2) diniy munosabatlarni ifodalash; 3) kiyim-kechaklar, oyoq kiyimi, uy-ro'zg'or buyumlarini nomlash; 4) vaqt (yil va kunlar) nomini atash.

O'zbek tilida yuqorida sanab o'tilgan guruhlardan eng ko'p qo'llanadigani odamlarning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra nomlovchi hamda kasb-hunarni ifodalovchi istorizmlardir. Badiiy asarda qo'llangan istorizm so'zlar ma'lum bir stilistik vazifa bajaradi. «Netay» asarida quyidagi istorizmlarni uchratamiz: podsho, amir janoblari, rasta oqsoqollari, qozi, boyvachcha, boyon, mulozim, vazir, sarkarda, rasta oqsoqollari, do'kondorlar, janobi oliy, qozi, boy, boyvachcha, mulla, imom, mulozim, vazir, sarkarda, ruhoniy, mufti, a'lam, mudarris, kosib, hammol, qul, karol, oqsoch, saroybon, paxtachi, machit, namoz, ro'za, izvoshchi va b.

G'afur G'ulom «Netay» asarida XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yuz berayotgan voqea-hodisalarni hikoya etayotgani uchun ham rus tilidan o'zlashgan istorizm so'zlarni ham qo'llagan: pristav, kucher, general-gubernator, gubernator va b.

Diniy munosabatlarni ifodalovchi **ro'za, namoz, mufti, a'lam, ruhoniy, imom, eshon, machit, mudarris, madrasa** kabi tarixiy so'zlar ham uchraydi.

³⁵ Ўзбек тили лексикологияси Т: Фан, 1981, 11-бет.

³⁶ Қаранг: Абдуллаева Л. Кўрсатилган тадқиқот. 28-бет; Чориев Б. Некоторые вопросы лексики поэта Гафура Гуляма. АҚД, Тошкент, 1972.

Gʻafur Gʻulomning «Netay» va «Yodgor» asarlarida ayollar kiyimiga xos boʻlgan faqat **paranji** soʻzi ishlatilgan.

Gʻafur Gʻulom asarlarida istorizmlardan tarixiy voqea-hodisalarni real tasvirlash hamda asarga tarixiylik rangi berish uchun foydalangan.

Gʻafur Gʻulom asarlari leksikasiga eʼtibor berilsa, jamiyat tarixi bilan bogʻliq muhim hodisalarni tasvirlashda eskirgan soʻzlarni oʻrinli ishlatganligi, undan mohirona foydalanganligi koʻzga tashlanadi. Bular oʻz va oʻzlashgan qatlamga oid soʻzlar hisoblanadi: rido- boʻyinga oʻrab yelkaga tashlanadigan oq chodir; vosila-vosita; gʻayurlik- dushmanlik; tumtaroq- tantana; yalov-bayroq; dovul- ikki yoniga teri qoplangan childirma; soqit-jimjit; shukuh- savlat; dabdaba, tantana; hiddat-shiddat; kitli-guruh, toʻda; alam-bayroq; tugʻro-gerb; dagʻdagʻa-jonlanish; epkinlik-hushyorlik; tolotumli-mavjli; toʻlqinli; shakkok-lgʻzi buzuq; epkin-chaqqon; basma-bas-musobaqa; jangu-jangavor; shovush-yaxlit muz maʼnosida; lojuvard-koʻm-koʻk; ifor (ipor)-xushboy hid; hijo-boʻgʻin; adogʻisi-narigisi; foʻrtona-toʻlqin; jushbush-harakat; tebranish; aqida-ishonch; jabr-algebra; totigʻ-jazo; mujda-xushxabar; pargar-tsirkulʼ, menaz-chehra; tamiz qilmoq – tozalamoq; kitoba – devor va toshlarga yozilgan yozuv.

Soʻz sanʼatkorlarining qoʻshgan individual ijodiy hissasi adabiy til tarixi uchun ilmiy ahamiyatga ega. Zabardast yozuvchi tilining fonetikasi, grammatik qurilishi, leksikasi va uslubiy xususiyatlarini nazariy va amaliy tahlil etish butun bir davr adabiy tilining takomillashish jarayonlarini belgilashda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi. Shoir oʻz ijodi jarayonida turli nutq qatlamlaridan foydalanib, arxaizm, istorizm va oʻzlashgan soʻzlarni qoʻllash orqali oʻz davri tili taraqqiyotining faol anʼanalariga rioya qilganligini namoyon etgan. Gʻafur Gʻulom oʻz asarlarida isteʼmol doirasi chegaralangan oʻzlashgan qatlamga mansub soʻnggi davrlar tili uchun eskirgan arabiy soʻzlardan ham unumli foydalangan: Zaʼfar-sariq, tavof –aylanish, yuz-koʻz surtish, muzaffar- gʻolib, gʻalaba qozongan, fotih-ochuvchi, zabt etuvchi; shukuh- savlat, dabdaba; shuur-ong; hiddat-shiddat; muhtadir-kuchli, qudratli; raʼvari naʼra- momoqaldiraqday hayqiriq va boshqalar.

Shoir tomonidan forsiy soʻzlarning birmuncha eskirgan koʻrinishlari ham oʻrinli qoʻllangan: kishti kor –dehqonchilik; obi hayot –tiriklik suvi; gulgun –qipqizil; uvadaband –eski kiyim bosh demak; junbush– harakat, tebranish; beniyat– orzusiz; pargar-tsirkul; pajmurda-soʻlgʻin, ezilgan; yaxbasta-muzlagan; roʻbaru-gʻalaba kuniga duch kelmoq; hamyoza-esnoq; pech bapech-qatma-qat; jobajo boʻlmoq-amalga oshmoq; mohiroʻy-oy yuzli, xarid-sotib olmoq. «Har bir amru farmonlariga shikastlik bilan qoyim turmoqlik, avvalo xudo, duvvum podsho hazratlari, sevvum biz kabi ustozlarni xushnud qilgʻay». (Netay. 31).

Birgina ushbu jumlada davr tili ruhini singdirish uchun bir necha chet soʻzlarini tanlab, atayin qoʻllaydi. Bular, amr, farmon, shikasta, qoyim, avvalo, sevvum, ustoz, xushnud va boshqalar. Shuningdek, shoir eski oʻzbek tilining oʻz davriga xos soʻz va soʻz formalaridan ham oʻrinli foydalangan Turmoqlik, qilgʻay kabi.

Gʻafur Gʻulom asarlari tiliga eʼtibor berilsa, qoʻllanish doirasi chegaralangan leksikaga, tarixiy funktsional xususiyatga ega boʻlgan eski soʻzlar qatlamiga tez-tez murojaat qilgan. Shoir ularni kerakli oʻrinlarda oʻtmish davr tushuncha va tasavvurlarni zamonaviy nutqda zaruriyat tufayli oʻrinli qullay olgan. Jumladan shoir badiiyatida arxaizm va istorizm talabiga muvofiq, uning leksik, fonetik, grammatik jihatdan eskirgan koʻrinishlarining barchasini uchratish mumkin. Arxaizm va istorizm hisoblangan soʻzning imloviy va talaffuz shakllarining eskirishi, soʻz, uning morfematik boʻlagi, yaʼni oʻzak yoki qoʻshimchalardan biri passivlashishi, shuningdek soʻz maʼnolaridan birining ham eskirishi mumkinligi kuzatiladi.³⁷ Masalan, shoirning Qozon shahridagi Mullanur Vohidov nomli zavod ishchilariga bagʻishlab yozgan (1936 yil) «Sher va sabun» sheʼrining ushbu misrasida oritu-tozalash soʻzi «Dunyoni ortuga etar kuchimiz» tarzida qoʻllangan. Bunda oritu soʻzi lugʻaviy oʻz mazmun mohiyatini saqlagan holda qoʻllangan. Shoir bu oʻrinda arxaizmning fonetik oʻzgargan shaklidan foydalangan.

Matndagi Oritu soʻzining oʻzagi ori-boʻlib, -t, -u qoʻshimchalari esa XIV-XV asrlar eski oʻzbek tili yozma manbalarida faol qoʻllangan feʼlning orttirma daraja –

³⁷ Ўзбек тили лексикологияси, Т: Фан, 1981.149-бет.

t, undoshdan keyin –o‘t//, it//, -ut qo‘shimchalari –u esa (t) ur//, -t (ur) affikslarining birikuvi asosida hosil bo‘lgan –(i) tu (r) tarzidagi qisqargan formasidir.³⁸

Aslida lug‘atlarda bu so‘z arig‘, orig‘, arimoq, aritmoq, arilmak-pokiza, sof toza, tiniq, tozalanmoq, arimoq, pokizalanmoq tarzida uchraydi.³⁹

Shoir ushbu she‘rini «She‘r va sobun» deb atab, uni detal sifatida bir-biriga qiyoslab, «she‘r» xalq, jamiyat fikrini tozalaydi, tiniqlashtiradi, ma‘naviy oziqlantiradi. «Sobun» esa jism, inson a‘zosi, kiyim boshni tozalaydi, atrof-muhitni pokiza etadi. Majozan butun dunyoni poklashga, xalqlar o‘rtasidagi tozalik, sof do‘stlikka, iliqlikka da‘vat etadi. Shoir birgina sof turkiy oritu so‘zi orqali turkiy xalqlar, xususan o‘zbek va tatar tillarining bir-biriga yaqinligini, so‘zning qo‘llanish doirasini, ma‘no kengayishi va torayish holatini ijodkor sifatida chuqur anglagan so‘zshunosdir.

G‘afur G‘ulom badiiyati tili leksikasida eskirgan so‘zlarning eng ko‘p uchraydigan turi leksik arxaizmlar hisoblanadi. Ularning aksariyati o‘z qatlamga oid so‘zlardir: alyorchi-mayxo‘rlik va fohishabozlikka boshlovchi ma‘nosida; yo‘qsil-proletar; yalov- bayroq; to‘qal-kemtik; kam-ko‘st; sezish-dunyoqarash ma‘nosida; adag‘isi- narigisi; puchmak- burchak va boshqalar.

Eskirgan so‘zlar, shoirning 30-40 yillardagi ijodi mahsulida rang-barang ko‘rinishlari qo‘llangan. «Shum bola»da shunday jumlar bor: «Bola-chaqalari bo‘lmaganidan uylari biznikiga o‘xshash to‘st-to‘polon emas-yig‘inchoqli». Ushbu jumlada yig‘inchoqli so‘zi-tartibli, saronjom-sarishta, ixcham ma‘nosida qo‘llangan fe‘l formasidir. Bu fe‘l formasi hozir ham ba‘zi shevalarda saqlanib qolgan.

Shoir ijodida eskirgan so‘zlar turlaridan biri arxaizmlarni arxaik so‘z va arxaik ma‘no kabi ikki turga bo‘lib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan arxaik so‘z o‘z-o‘zidan ma‘lum bir so‘zning yana bir yangi sinonimi paydo bo‘lishi, zamon talabi bilan qo‘llanishda faollashuvi asosida uning dastlabki atamasi arxaiklasha

³⁸ Абдурахмонов Ф, Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т, Ўқитувчи. 1973.187-бет.

³⁹ Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача лугат. Т, 1953.23-бет.

boradi, quyida o'g'ri-qo'li, egri-kisovur kabi sinonimik qatorlardan qaysi biri arxaiklasha borganligini ko'ramiz: *Oldinda kimsan-Sulton kisovur*(25-bet). *Birorta o'g'ri yoki qo'li egrining haddi bormikan. Kisebir: Bozorg'a uri aralabdi* (115-bet). Aslida ushbu jumladan birida qo'llangan *kisebir-kisovur, qo'li egri, o'g'ri-uri* so'zlariga nisbatan o'z davrida neologizm sifatida yangi kirib kelgan so'z hisoblanadi. Hozir esa tilimizda ushbu o'zlashgan *kisovur-kisebir* so'zi arxaiklashagn.

Arxaizmning ikkinchi ko'rinishi arxaik ma'no esa birmuncha chuqurroq tahlil etilishni talab etadi. Leksik arxaizmlarning ushbu turi ilmiy adabiyotlarda semantik arxaizmlar deb yuritiladi.⁴⁰ Bunda ko'pma'noli so'z ma'nolarining biri eskiradi.

Ilmiy adabiyotlarda bu haqida bir-biriga qarama-karshi fikrlar ham mavjud. Lekin arxaizm o'z ichida ikki guruhga bo'linadi. Arxaizm – so'z va arxaizm – ma'no.

Arxaizm- so'z bir ma'noli so'zning eskirishi, arxaizm-ma'no esa so'zning leksik ma'nolaridan birining eskirishiga aytiladi.⁴¹ (Har holda semantik arxaizm, ya'ni barcha ma'nolarining eskirishiga ishora qilmaydi) Masalan eyindi- tayyor bo'ldi ma'nosida, totig'-jazo, g'arov-qamishning bir turi, uddaburon-chevar qo'llar, muralamoq-qaramoq, kovshanmoq-chaynalmoq, jag'illamoq-qaynamoq ma'nosida, telmurmoq-karamoq, uzunmoq-cho'zmoq, uzaymoq ma'nosida kabi. Ushbu arxaik ma'noga oid so'zlarning ba'zilarini arxaik – dialektal so'zlar guruhiga ham qo'shish mumkin.

Xullas, G'afur G'ulom asarlarida eskirgan so'zlar –arxaizm va istorizmlarning o'ziga xos original ko'rinishlari qo'llangan. Chunonchi eskirgan so'zlarning fonetik *muni (buni) luzum (lozim), o'ri (o'g'ri), o'ldi (bo'ldi)* orfografik *yilga (jilg'a) ehtirom (ihtiyor)*, aktsentologik ya'ni talaffuzi o'zlashgan *kisovur-kisevir*, grammatik jihatdan eskirgan *aytadurg'on (aytadigan)*, leksik *boyon (boylar), o'pirajak, tikmoq (ekmoq)* frazeologik *sovuq diydor, itdan tuqqan* kabi ko'rinishlari ijodkor uslubining emotsional-ekspressiv bo'yqadorligini ko'rsatadi.

⁴⁰ Ўзбек тили лексикологияси Т: 1981.149-бет.

⁴¹ Раҳматуллаев Ш. Архаизм ва Истори́зм. Тошкент Давлат Университетининг илмий асарлари. Чик 211. 244-бет.

Ishlatish xududiga ko'ra chegaralangan til hodisalaridan yana biri dialektizmlar bo'lib, uning leksik dialektizm turidan boshqa grammatik dialektizm, fonetik dialektizm kabi turlari ham mavjud. G'afur G'ulom ijodida sheva xususiyatlaridan shu darajada me'yorida foydalanganki, uni ortiqcha ishlatib, nutqni og'irlashtirmagan, sun'iy lashtirmagan. Bu esa yozuvchi tomonidan badiiy asarda personajlar tilini individuallashtirish uchun va uslubiy miqdorlarda atayin qo'shish demakdir. Masalan, «Shum bola» asarida qo'llangan quyidagi matnga e'tibor bering:

-Yigitlar, -dedi o'zbek, -ichlaringda imon shariatni biladigan, o'lik juvotirganlaring bormi?

Bu nutq o'zbekning nutqidan olingan bo'lib, biz **juvotirgan** so'zini ishlatishiga ko'ra qipchoq dialektiga mansub deymiz. Lekin mazkur dialektning o'ziga xos xususiyatlari **yigitlar, biladigan, bormi** so'zlarida e'tiborga olinmagan. Asarning boshqa o'rinida xuddi shu o'zbek nutqida yigitlar so'zi **jigitlar** tarzida berilgan: Bir **jigitimiz** novkaslanib qaza qilgan edi (161). Yoki boshqa bir o'zbekning nutqida ham xuddi shunday dialektal xususiyatlarni kuzatamiz:

-Ha, h, to'g'ri, bozorda jarchi, o'n besh yoshli uvil bola jug'oldi, topganga bir to'kli, deb yurganini eshitdim, -debdi yana bir «guvoh» (181).

Mazkur matnda qipchoq dialektiga xos bo'lgan **uvil (o'g'il), jug'oldi (yo'qoldi)** so'zlari uchraydi. Xuddi shu o'rinda **to'g'ri, topganga** leksik birliklarini ham dialektal shaklda qo'llash mumkin edi.

Yozuvchining «Netay» povestidan olingan ushbu to'rtlikka ham e'tibor beraylik:

Bu elning oshib keldim devonidan

Jirtildi sag'ri etigim tovonidan

To'qqan elda Takaday jo'raydim

Quvg'in qoldim xonimning jomonidan (22)

Ushbu misralar Surxon va Qashqadaryoda yashaydigan kambag'al dehqon va chorvadorlar tilidan aynan aytilgan terminlardir.

Yozuvchi asarlarida shunday dialektal soʻzlar borki, ular badiiy adabiyotda kam uchraydi; ular faqat muayyan sheva vakillarining ogʻzaki nutqida uchrashi mumkin. Masalan: Qayaqqa qochyapsanlar, oqchamni berib ketlaring (158 b).

Shuningdek, ijodkorning asarlari tilida **kuzdak** (220), **giyovandlardek** (223), **ishim ungalgani** (223), **govurt** (178), **tovuq** (178), **juvari goʻja** (184), **oʻqlov** (137), **turmuchlamoq** (136), **sulti** (170), **dulvor** (136), **choshka** (210), **novkoslanmoq** (172), **dagillamoq**, **xirpa** (154), **olovni joʻnashtirmoq** (137), **puk berib qoʻymoq** (177), tusini el yesin kabi dialektizmlarni uchratamiz.

-Qoyil qoldi, hazrat, koʻp hunarni bilaman, degancha bor ekan, **choqqa** usta ekan (169). Men yanga bir dodlab koʻray, dedimu bu ishning bizga nafi tegmasligini bilib, **xap qoldim** (167); Yogʻni qogʻozga **turmuchlab**, lippamga qistirdim; **-Govurting** bormi?; -Nonni ushat, choyni ich, koʻmakaylik qilmay, yaxshi chaynab eya bor, bolam (236).

Yana shuni qayd etib oʻtish lozimki, Gʻafur Gʻulom asarlarida qoʻllangan baʼzi dialektal soʻzlar asta-sekin oʻz davri tili manbai sifatida adabiy tilga toʻliq oʻzlashib ketgan. Masalan, adabiy tilda «koʻplikning «sizlash» maʼnosi, asosan, **-inglar**, «senlash» maʼnosi **-laring** shakllari yordamida yasaladi».⁴² Xuddi shu shakl va maʼno Gʻafur Gʻulom ijodida uchraydi. Masalan: -Yoʻq, meniki boʻldi, oʻzlaring bir balo qilib amallab qoʻya **qolarring**, - dedi Omon (165). Kun choshka boʻlib ketdi, qoʻylarni bozordan qoldirib, **senlar** salqinda uxlab yotibsan, ittan tuqqanlar (210). Bunday oʻzlashishning aksariyati shevalarda saqlanib qolgan tarixiy, eskirgan soʻzlar evaziga koʻpaya bordi. **Dargʻa, bakovul, boʻrkin, manglay, choʻng, lungi** va boshqalar.

Oʻzbekiston hududida koʻp zamonlardan beri turli kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etib kelgan. Shulardan Gʻafur Gʻulom asarlarida quyidagi kasb-hunar atamaları ham isteʼmol doirasi chegaralangan soʻzlar sifatida tilga olingan.

Otalarimizning koʻpchiligi mayda kosiblar, **qoravul, xodimgar, meshkob, otbaqar, hammol, soʻfi, folbin, arqon tovlaydigan, nogʻora-childirma qoplaydigan, toʻqimdoʻz, chegachi, sovungar, savdogar, oshpaz** va hakazo

⁴² Шоабдурахмонов Ш ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т: Ўқитувчи. 1980.370-б.

bo'lganliklari uchun ularning qo'ldan hunarlarini olib yoki ularning yoniga ko'makchi bo'lib tushish bizga to'g'ri kelmas edi («Shum bola» 132). Bu chirog'larni har kuni kechqurun narvon ko'targan chirog'bon kerosinidan, piligidan xabar olib, shishasini artib o'zi yoqib, azonda o'zi o'chirib ketadi (132). Omonning otasi Tursunboy aka **qalamtarosh pichoq qiladi** (134). It Obidning otasi Zohid **yakanchi** (eski-tuski yig'uvchi) edi. Bit Obidning otasi Rasulqo'zi aka **kin tikar edi** (135). Turobboyning otasi Ziyamat aka **g'uzafurush** edi. Yo'ldoshning otasi Buva aka bo'lsa **kun etik tikar edi...** Solihboyning otasi Yunus aka xofiz edi. Abdullaning otasi Aziz aka **kerosinfurush** edi. Usta Miraziz **etikdo'zlikda** mening ustam (135). Ammamning eri **mo'ynado'z**- kosib (138). ... **bo'yinchado'z** Omonbiyning o'g'li Xusanbiyni uchratib qoldim (145). Men ota kasbimdan baraka topmaydigan ko'rindim. **Laxtakfurushlikka** o'tdim (145). ...**savdogarlarning, xannotlarning, do'kondorlarning** arava-arava yuklarini ortib tushirib berar edilar (243). Bitta **masxaraboz** kelib, meni turtib davradan chiqarib yubordi (245). **Surnaychi- karnaychilarning** oldida birinchi qatorda tomosha qilib turar edim (245).

Bu o'rinda shuni aytish joizki, ijodkor asarlaridan ma'lum bir kasb-hunar kishilari o'rtasida qo'llanadigan leksemalar o'rin olmagan, balki bu kasb-hunar nomlari, asosan, «Shum bola»ning nutqida, ya'ni u kitobxonni o'ziga tanish bo'lgan shaxslar bilan tanishtirayotganda ishlatilgan.

Ma'lumki, G'afur G'ulom ijodi gullab-yashnayotgan bir davrda san'at, adabiyot va madaniyatimizning barcha sohasida bo'lgan o'sish, o'zgarishlar o'zbek adabiy tilimiz leksikasida ham o'z aksini topgan edi. Albatta, buyuk san'atkorimiz ham bu o'zgarish va rivojlanishlarga oid leksik birliklardan foydalangan.⁴³ Mohir so'z ustasi o'zining nazmiy, ayniqsa, nasriy asarlarida jonli xalq tilidan foydalanishga imkon qidirgan, ancha muvaffaqiyatga erishgan. Yozuvchi asosan umumxalq o'zbek tili leksikasi va jonli so'zlashuv tiliga xos so'zlardan mahorat bilan foydalana olgan. Asar ruhiga mos so'zlashuv dialoglar undagi bir xil takroriy

⁴³ Бу ҳақда қаранг: Мухаммаджонова Г. Ғ. Ғулом шеърларининг баъзи бир тил хусусиятлари // Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар. Т: Фан, 1965. 147-154-бетлар. Б.Қorieв. Ғ.Ғулом шеърляти тили Т: 1994.

soʻzlar ijodkor tomonidan personajlarning majoz tabiatiga, xarakteriga mos usullarni topa olgan. «Shum bola» asaridagi bunday qoʻllash usulini ushbu dialogda koʻramiz. Saribiy boʻlisning har bir gapida takror qoʻllanadigan innaykeyin soʻziga eʼtibor beraylik:

1-Xoʻsh, innaykeyin qanday qilib sindi? Roʻzgʻorda mening pichogʻimdan boshqa qurib qolgan ekanmi? (-bet).

2... Qanday olma pishibdi... Innaykeyin? Shu pishgan olmani terish kerak... Innaykeyin? Bu kabi misollarni koʻplab keltirish mumkin. Yozuvchi asar badiiyligini oshirishda personajlar tilini individuallashtirishda, badiiy joziba berishda qahramonlarni jonli soʻzlashuv tilida gapirtirishga harakat qilgan. –jonim Samad, bilmayursanki, bozor kasodlar, oʻroda daʼvo aylayub, qoʻnoqlari injiymoq oʻlmaz, -Qoʻnagʻing kim oʻzi, ogʻa? –Bir musofir qoʻja sarvatdor. Toshkent pullarini zurna chagʻirib qimor oʻynayurlar. Satoshmoq oʻlmaz. Xoni soʻyla, na istayursan? («Netay», 12). Bu oʻrinda yozuvchi buzuc til elementlaridan foydalanib, personaj nutqini aynan keltirgan. Bu usul ilmiy adabiyotlarda dagʻal, oddiy soʻzlashuv leksikasi deyiladi. Bunday ogʻzaki nutq (dagʻal soʻzlashuv) leksikasi sifatida vulgarizmlar alohida ajralib turadi. Bunga haqorat anglatuvchi soʻzlar yoki leksikalizatsiyalashgan iboralar kiradi. Masalan: itvachcha, oqpadar, padarlaʼnat, buzuk, fohisha, juvonmarg, bachchagʻar, goʻrsoʻxta, muttaham, zumrasha, itdan tuqqan va boshqalar. Dagʻal soʻzlashuv leksikasi uslubida yaratilgan qargʻishlar ham badiiy asar tilining xalqchilligini, real voqealarni rangin ishlangan holda aniq va ravshan ifodalanganidadir. Masalan: -hoy, juvormarg, zumrasha tagʻin koʻchagami? (13-bet); -Ha, xizmating boshingni esin! –dedi domla, -eshakni soʻyib qoʻyibsang-ku, padar laʼnat(171-bet); -Hoy, itdan tuqqan,bu qilgʻing nimasi?! Agar butun yolgʻon qilsang, men xonavayron boʻlar ekanmanda, tur-e, padaringga laʼnat sening, qorning oshga toʻymasin sening, juvormarg boʻl! Haydang bu kazzobni. Ushbu misollardan koʻrinib turibdiki, yozuvchi qargʻishga oid soʻz va iboralarni bevosita «Shum bola» asari bosh qahramoni tilidan, Shum bolaning soʻzlari, harakatlari bilan tasvirlaydi. Yozuvchining asosiy maqsadi qahramon xatti-harakatini, uning bolalarcha sodda, ravon, hamma uchun tushunarli

bo'lgan nutqni, hozirjavoblik xislatlarini real ko'rsatish bo'lsa, undan tashqari voqea hodisa tafsilotlarini o'quvchi ko'z oldida real tasvirlashdan iboratdir.

Ishlatish doirasi chegaralangan qatlamlar sifatida yana jargon, argo, vul'garizmlar kabi hodisalar hisobga olinadi. G'afur G'ulom asarlari tilida ham «biror guruh vakillarining, o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari –jargonlar»⁴⁴ ham qo'llangan bo'lib, ular personajlar hatti-harakatlarini yorqinroq ifodalashda stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan: Domla g'azab bilan menga qarab, «**Xinzir**» dedi-da, ko'ylagini echib, oq ishtoni bilan hovuzga tushdi. Bu «**xinzir**»⁴⁵ degani nima degani ekan? So'kkanimikan? «Qoyilman» deganimikan? («Shum bola» 168). ... **bisoti bag'al** orttirib, qo'yni-qo'njimiz to'lib, sen je-men je- shaharga izzat-obro' bilan tushib borsak yomon bo'lmaydi (161). Hozir ta'til vaqti bo'lgani uchun qishloqlarda **tabdili havo** qilib yuribmiz (161). Argolar ham asli jargonlarning bir ko'rinishi bo'lib, tarbiyasi buzuvchi, qo'li egri shaxslardan iborat kichik guruhning o'zigagina tushunarli bo'lgan leksemalarga aytiladi. Masalan:

...Bugun kechasi bir amallab qochamiz.

-Qurug'dan qurug'-a!

-Ha, bo'lmasa, nima qilar eding, tom teshib, tim ururmidik?

-**Muzdini chiqarib** ketsak bo'lar edi. Boyagi, men domlanikida, eshonnikida yuraverib hiyla qo'li egrilikka o'rganib qolganman. Egasi yo'q mol afandiniki degan, ma'qul gapga ko'nikib ketganman. Omonni yo'ldan chiqarib, boyning birorta molini o'lja qilib ketish payida edim (220).

Yuqorida keltirilgan matndagi **muzdini chiqarmoq** birikmasi «alamini chiqarmoq» ma'nosida qo'llangan.

⁴⁴ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2002. 39-бет.

⁴⁵ Хинзир-тўнғиз. Бу ҳақда қаранг. Ғ.Ғулум. Асарлар. Ўн томлик. Бешинчи том. Т: 1973. 424-бет.

III BOB. G‘AFUR G‘ULOM IJODINI O‘RTA MAKTABLARDA O‘RGANILISHI XUSUSIYATLARI

3.1. G‘afur G‘ulomning nasriy asarlarini umumta’lim maktablarida o‘rganilishi

Ma’lumki, til – millat bu millat ko‘zgusi. Har bir xalqning o‘z ona tilisi mavjuddir.

Shoir – u yozuvchilar o‘z ona tilida she’rlar asarlar bitadilar, o‘z xalqining jonli hayotini o‘z ona tilida bayon qiladilar. Rus xalqi rus tilida, nemis xalqi nemis tilida, fransuz xalqi esa fransuz tilida o‘z asarlarini bitib nafaqat o‘z xalqiga balki boshqa xalqlarga ham o‘zining tarixini bayon qilib keladi.

Bizning o‘zbek xalqimizning o‘z mushtaark tili ona tili mavjud bo‘lib iste’dodli shoir va yozuvchilarimiz shu tilda o‘z asarlarini bitib kelganlar .

Ana shunday yetuk asarlarni bitib kelgan yozuvchilardan biri G‘afur G‘ulomdir.

G‘afur G‘ulom o‘zining iste’dodi bilan biz kitobxinlarga ulkan meros qoldirib ketgan . Uning «Shum bola» , «Yodgor» , «Mening o‘g‘rigina bolam» va boshqa ko‘plab nasriy asarlari unga shuhrat keltirgan

Biz malakaviy ishimizni ushbu asarlarida keltirilgan so‘z va iboralarni o‘rta maktablarda o‘rgatishga qaratdik

«Shum bola», asarlar umumta’lim maktablarining adabiyot fanidan o‘quv dasturida ikki soat vaqt ajratilgan, unda ushbu asardan qisqacha parcha keltirilgan.

3.2. Gʻafur Gʻulom ijodini oʻrta maktablarda oʻrganishga bagʻishlangan dars ishlanmalari

Iboralar

(5-sinf, IV chorak)

Darsning maqsadi:

- a) **taʼlimiy maqsad:** oʻquvchilarga iboralar haqida maʼlumot berish;
- b) **tarbiyaviy maqsad:** oʻquvchilarda ona tiliga muhabbat, hurmat tuygʻusini oʻstirish;
- c) **rivojlantiruvchi maqsad:** oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish, ularni ijodiy fikrlashga undash

Darsning shiori: Ilmdan bir shula dilga tushgan on

Shunda bilursanki ilm bepayon

(Firdavsiy)

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi

Darsning uslubi: «Aqliy hujum», «Moychechak», «Yoʻlini toʻgʻri tanla», «Chaqqon quyonchalar», «Umid daraxti»

I Tashkiliy qism: Sinfga kirish, oʻquvchilar bilan salomlashish, navbatchidan davomatni soʻrash, xona tozaligiga eʼtibor berish, kun yangiliklari bilan oʻquvchilarni tanishtirish

II Uyga vazifa soʻrash

Oʻqituvchi bugungi dars noanaviy boʻlishini aytib sinf oʻquvchilarini «Olgʻirlar» , «Vatnparvarlar», «Omadlilar» kabi guruhlariga ajratadi. Soʻng oʻquvchilardan uyga vazifasi soʻraladi, uyga vazifa qilib 535- mashq berilgan sharti quyidagicha akademiik litsey, kollej haqida oʻquvchilar bilgan maʼlumotlarini yozma tarzda yozib kelish aytilgan oʻquvchilar bilgan maʼlumotlarini oʻqib berishadi. Uyga vazifa har bir guruhning ikki nafar oʻquvchisidan soʻrab, toʻgʻri javob bergan oʻquvchilar , «Harakat qil» (3ball), , «Barakalla» (4ball), , «Ofarin» (5 ball) ragʻbat kartochkalari bilan taqdirlanadi.




Soʻngra oʻqituvchi oʻtilgan mavzuni, «Aqliy hujum» usuli orqali soʻraydi.

1 Yangi soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?

2 Eski soʻzlar oʻrniga qoʻllanilayotgan yangi soʻzlarni bilasizmi?

3 Toʻrtta yangi soʻzni gap ichida keltirib, maʼnosini tushuntiring.

Oʻtilgan mavzuni oʻquvchilar, «Moychechak» taʼlimiy metodi orqali mustahkamlashadi. Bunda har bir guruhga «Yangi soʻzlar» mavzusi boʻyicha oʻquvchilar bilgan maʼlumotlarini yozishadi. «Moychechak»ning gullariga tilimizdagi yangi soʻzlarga misollar yozishadi



Bu shart uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi Ushbu shart bajarilgach, oʻqituvchi oʻquvchilar bilan tekshirib baholaydi, oʻqituvchi har bir shart soʻngida ragʻbat kartochkasi berib boradi.

III. Yangi mavzu bayoni Aziz oʻquvchilar mana siz adabiyot darslaringizda koʻpgina yozuvchi, shoirlar bilan tanishdingiz, serqirra ijod sohibi oʻzinning koʻplab asarlari bilan katta –kichik kitobxonlarni birdek oʻziga qarata olgan yozuvchilarimizdan biri - Gʻafur Gʻulomdir. U oʻzining «Shum bola», «Yodgor», «Mening oʻgʻrigina bolam» asarlari bilan biz kitobxonlarning qalbida oʻchmas iz

qoldirgan bugun biz yangi mavzuni ushbu adibning asarlari bilan bog‘lagan holda darsimizni o‘tamiz «Shum bola », «Yodgor », «Mening o‘g‘rigina bolam»va boshqa asarlarida qo‘llanilgan iboralar va ularning ma‘nolari bilan tanishamiz Ma‘nosi bir so‘zga teng keladigan so‘zlar birikmasi yoki gaplarga ibora deyiladi. Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.Bitta gap bo‘lagi ya‘ni hammasi ega, kesim, hamda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasidakela oladi

Qovog‘idan qor yog‘moq (Yodgor 8- bet)

Ichagi uzildi (Yodgor 13- bet)

Tili chiqdi (Yodgor 15- bet)

Tuzim ko‘r qilgur? (289 shum bola)

Ko‘zing qursin qursin (241 shum bola).

Qizi tushmagur («Yodgor».27).

Ichagimiz uzildi

Gapida turadi - qatiyatli

Qo‘li baland - boy

Esiga keldi - esladi

Ko‘kka ko‘tardi – maqtadi

Shunday qilib iboralar haqida ma‘lumot olishadi, keyin 536- mashq og‘zaki tarzda bajariladi

«Burni ko‘tarilgan »iborasi takabbur, manman, o‘ziga bino qo‘ygan kimsalarga nisbatan aytiladi. O‘ta salbiy ma‘noga ega. Qaddini tik tutib, burnini havolantirib yurgan kishi burnidan narini ko‘rolmay qoladi. Mansabi yoki boyligiga g‘ururlanib hech qaysi odamni mensimay qo‘ydi (Mahmud Sattor)

Shunday qilib o‘quvchilardan fikr so‘raladi o‘quvchilar o‘zlari fikr mulohazalarini bildirishadi. Bu mashqni o‘quvchilar bir-birlari bilan bahs yuritib bajaradi va o‘zlarining fikrlarini daftarlariga yozib qo‘yadi. Undan so‘ng o‘qituvchi ularning fikrlarini xulosalab, darsning tarbiyaviy maqsadini (o‘quvchilarda insoniy xislatlarni rivojlantirish) ham o‘quvchilar ongiga singdirib ketadi.

Bu ibora haddan tashqari gerdaygan, kibrlangan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Sinonimi: *dimog‘i shishdi*. Ba’zi insonlar katta boylik to‘plasa yoki yuqori vozimni egallasa, hammani birday ko‘rmasdan, ularni nazariga ilmay qo‘yadi. Bunday insonlarning bu salbiy harakati boshqalarning g‘ashiga tegishi yoki insonlarning dilini og‘ritishi mumkin. Bu salbiy xislatdagi odamlar vaqti kelib jamiyatda, insonlar orasida obro‘sizlanib, elda qadrsiz bo‘lib qoladi.


Shunday ekan, aziz o‘quvchilar sizlar ham kelajakda o‘z sevgan kasbingizni egallab, yuqori martabalarga erishganingizda bunday takabburlikka, manmanlikka yo‘l qo‘ymang. Hammaga birday munosabatda bo‘ling. Aks holda yillar davomida qiynalib to‘plagan obro‘yingiz bir pul bo‘ladi. Insonlar orasida hurmatga sazovar bo‘lmay, ularda salbiy taassurot qoldirasiz.

IV. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash Fikr hamda mulohaza bildirishgach iboralar mavzusi bo‘yicha «Yo‘lini to‘g‘ri tanla» metodi o‘tkaziladi. Chap ustundagi iboralarining zid ma‘noligini o‘ng ustundan toping. Ushbu metod orqali o‘quvchilar iboralarining ma‘nosi bilan yaxshi tanishadi

«Yo‘lini to‘g‘ri tanla» metodi orqali bajartiramiz.

- | | |
|-----------------------------------|---------------------------|
| 1) tilidan bol tom | a) gapida turadi |
| 2) qo‘li baland | b) esiga keldi |
| 3) ko‘kka ko‘tardi | s) dimog‘i chog‘ |
| 4) og‘zi bo‘sh | d) tili zahar |
| 5) so‘zidan qaytdi | e) bag‘ridan itardi |
| 6) yodidan ko‘tarildi | f) turqi sovuq |
| 7) ichi qora | g) qo‘li kalta |
| 8) kayfi buzuq | h) og‘zi mahkam |
| 9) <i>tepa sochi tikka bo‘ldi</i> | i) <i>og‘zi qulog‘ida</i> |
| 10) istarasi issiq | j) qalbi toza |

1- e 2- g 3- i 4- g 5- a 6- b 7- j 8- d 9- i 10- f



Ushbu metod bajarilgach kimsalarga nisbatan aytiladi 537-mashq. «*Tilining uchida turmoq*», «*Tishining kovagida saqlamoq*»kabi iboralarga izoh bering. Ular ishtirokida ogʻzaki gaplar tuzing.

Birinchi «Chaqqonlar »guruhi: «*Tilining uchida turmoq*»iborasini izohlab unga

gap tuzadi.

Ikkinchi guruh «Topqirlar»: «*Tishining kovagida saqlamoq* » iborasini izohlab unga gap tuzadi.

Qaysi guruh iboralarning maʼnosini toʻgʻri izohlab, koʻp va toʻgʻri gaplar tuzsa gʻolib sanaladi.

1 – Guruh taxminan shunday izohlashi mumkin: «*Tilining uchida turmoq* » – iborasi biron bir narsa yoki biron bir savolga javobni bila turib, shu daqiqada xotirasida tiklab ayta olmaslik holatiga nisbatan ishlatiladi. Bilgan narsasini bir zumga esdan chiqarish.

Gaplar:

1. Behruz - «Bu javobni hozir aytolmayman, lekin tilimning uchida turibdi »– deb javob berdi.
2. «Tilimning uchida turibdi, hozir aytaman bu qanaqa hashorat ekanligini » – deb Bobur hayajonlanib javob berdi.
3. «Azboroyi xudo, shoshganimdan , buning nomini ham unitib qoʻyibman, tilimning uchida turibdiya ».

2 – Guruh. «Olg‘irlar » quyidagicha izohlashi mumkin. « *Tishining kovagida saqlamoq* » iborasi biron narsani yaqin kishilari uchun ilinib, shuningdek yiqqan-tergan boyliklarini, mablag‘larini o‘ta ehtiyotkorlik bilan, saqlab yurishga yashirin holda hech kimga bildirmasdan asrab avaylashga nisbatan aytiladi.

Gaplar: 1. Xadicha xola bu meva-chevalarni shahardagi qizi uchun tishining kovagida saqlab yuribdi.

2. Qishlog‘imizning bir dehqoni mehnat qilib, orttirganini yemay, ichmay tishining kovagida asrab yuradi

3. «Bu xabarni tishingning kovagida saqlab yurishdan nima foyda, baribir hamma Eshitadi »— deb Gulyuz zarda bilan javob berdi.

3- guruh esa ushbu iboralardan foydalangan holda gaplar tuzib ular ham o‘zlari fikrlarini bildiradilar

Bu mashqni bajarish orqali guruh a‘zolarining barchasi yuqorida iboralarning Ma’nosini chuqurroq biladilar va iboralarni qatnashtirib gaplar tuzish Ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Darsni mustahkamlash uchun ‘Chaqqon quyonchalar » metodidan foydalanamiz



ushbu shart quyidagicha yani quyonchalardan savollar yashiringan bo‘ladi,o‘quvchilar ushbu savollarga javob bersa «Quyonchalar» savatchadagi sabizdan olishadi, mobodo javob berisha olishmasa quyoncha sabzini ola olmaydi

Savollar quyidagicha bo‘ladi:

Ilonni yog‘ini yalagan -

Yog‘ tushsa yalagudek -

Tomdan tarasha tushgandek -

O‘quvchilar ushbu iboralarning ma’nolarini topadilar

Shart bajarilgach guruhlar baholaniladi

539-mashq.Uyga topshiriq .Quyidagi iboralarning ma'nosini aytib bering. Ular ishtirokida gap tuzing.

Belni bog'lamoq –

Do'ppisini osmonga otmoq –

Tirnoq ostidan kir qidirmoq —

Ko'kka ko'tarmoq —

Tomdan tarasha tushganday—

Belni bog'lamoq – biron ishni bajarishga shaylanmoq, astoydil kirishmoq va ahd qilmoq kabi ma'nolarni bildiradi.

Agar biz belni bog'lab ishlamasak, mo'l hosil ololmaymiz.

Do'ppisini osmonga otmoq – biron narsadan yoki biron voqeadan judayam hursand bo'lmoq, quvonmoq ma'nolarini bildiradi

Agar bugun men 5 baho olsam judayam do'ppimni osmonga otaman.

Tirnoq ostidan kir qidirmoq iborasi yomon niyat bilan deyarli aybi yo'q kishining faoliyatidan ayb topishga harakat qilmoq ma'nosini bildiradi.

Ba'zi odamlar borki, faqat birovning tirnog'idan kir qidiradi.

Ko'kka ko'tarmoq iborasi biron kishini ortiq darajada maqtamoq ma'nosini bildiradi.

O'qituvchimiz Hilolani yaxshi dars qilib kelganligi uchun ko'klarga ko'tardi.

Tomdan tarasha tushganday iborasi biror voqea-hodisaning qo'qqisidan, kutilmagan holda va qo'pol tarzda bajarilganini bildiradi.

Kecha biznikiga Nargiza tomdan tarasha tushganday kelib qoldi

Dars ohirida o'qituvchi o'quvchilarga ko'rib turibsiz o'quvchilar bu yerda darat turibdi daraxtda hech qanday gullar yo'q bilamiz aziz o'quvchilar sizlar bugungi olgan bilimlaringiz bilan ushbu daraxtni gullar bilan to'ldirasiz agar siz bugungi darsdan a'lo darajada o'zlashtirdim desangiz qizil gul bilan yaxshi o'zlashtirdim desangiz och qizil rangdagi gul bilan qoniqarli o'zlashtirdib desangiz sariq rangdagi gul bilan to'ldirasiz

Aziz o'quvchilar mana olgan bilimlaringiz bilan ushbu daraxtimiz ham gullar bilan yashnab chiroyli daraxt bo'ldi, bundan keyin ham doimo ilm, bilim olishdan to'htamang chunki ertangi kunning kelajagi sizlar bo'lasizlar

Bugungi darsda faol qatnashgan guruh hamda o'quvchilar baholaniladi. G'afur G'ulom ijodida qo'llangan iboralar bilan mana tanishib ham oldingiz
Shuning bilan bugungi darsimiz tugadi.

V. Darsni baholash.

Darsda faol qatnashganlar baholaniladi.

VI. Darsni yakunlash.

Eskirgan soʻzlar


(5-sinf, IV chorak)



(Podshoh)



(Shoh va vazir)



(Darvoza)

Maqsad vavazifalar: a) **ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga G'ofur G'ulom ijodiyotida qo'llangan eski so'zlar haqida umumiy ma'lumot berish

b) **tarbiyaviy:** O'quvchilarni mehnatsevarlikka, insoniylikka o'rgatish. Ularni vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash. Ularga odob, axloq tushunchalarini singirish.

v) **rivojlantiruvchi :** O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish. O'quvchilarning bilim samaradorliklarini oshirish. Har bir fanga alohida qiziqish uyg'otish, bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, bilimlarini kengaytirishga erishish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi :

Dars usul: «Kim tez topadi »

Dars shakl: yakka va guruhlarda ishlash

Dars jihozi: darslik , didaktik va tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o‘quv qurollari va sinf xonasining tozaligini nazorat qilish, guruhlariga ajratish.

II. Uyga vazifani so‘rash:

O‘quvchilar o‘tilgan mavzuni qay darajada yaxshi o‘zlashtirganligini

III. Yangi mavzu bayoni: Tilimizda ma’lum davrda qo‘llanilib, hozirgi kunda foydalanmaydigan so‘zlarga eskirgan so‘zlar deyiladi.

So‘zlarning eskirishi ikki xil yo‘l bilan amalga oshadi.

1. So‘z o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi.

Bunday so‘zlarga tarixiy so‘zlar deyiladi

2. So‘z eskiradi, tushuncha saqlanadi va u boshqa so‘z bilan nomlanadi. Ularga arxaik so‘zlar deyiladi.

«**Kim tez topadi**» usuli orqali bilib olamiz. Guruhlarga «Eskirgan so‘zlar» mavzusiga oid o‘qituvchi tomonidan G‘ofur G‘ulomning «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasi bo‘yicha eski so‘zlardan tayyorlangan matn parchasi tarqatiladi.

O‘quvchilar matn ichidan tarixiy va arxaik so‘zlarni topishi lozim

«**Mening o‘g‘rigina bolam**» hikoyasi

IV O‘quvchilarni baholash

V. Mustahkamlash:

Yangi mavzu «Sehrli qasr sari» usuli orqali mustahkamlanadi.

“Sehrli qasr sari”



- 1 Eskirgan soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
- 2 Eskirgan soʻzlar qanday turlarga boʻlinadi?
- 3 Arxaik soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
- 4 Tarixiy soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
- 5 Askar, qozi, soʻzlarining maʼnosi nima?
- 6 Mingboshi soʻzning maʼnosi nima?
- 7 Kosib soʻzning maʼnosi nima (Netay 9)
- 8 Eshon soʻzning maʼnosi nima? (Netay 27)
- 9 Qozi soʻzining maʼnosi nima? (Netay 27)
- 10 Qozixona soʻzining maʼnosi nima? (Netay

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek adabiy tilining bugungi taraqqiyot darajasi uning tarixiy-tadrijiy rivojlanish bosqichlari bilan belgilanadi. O'zbek tilining leksikasi boyishi jarayonini kuzatish badiiy asar tili va uning uslubiy xususiyatlarini diaxronik va sinxronik yo'nalishda o'rganish tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Nasr tili ma'lum darajada nazm tilidan farq qiladi. Nasr tilida ma'lum joy xususiyatlarini aks ettirish jarayonida qahramonlar nutqi orqali dialektal so'zlar kasb-hunarga oid atamalar, jargonlar va shunga o'xshash leksik vositalardan keng foydalaniladi. Nasr tili leksik jihatdan badiiy uslubning ajralib turuvchi turidir. Bu janrga xos xususiyatlar, har bir asarning o'ziga xos leksikasida namoyon bo'ladi.

O'zbek tili leksikasini o'rganishda G'afur G'ulom nasriy asarlari o'ziga xosdir. Ijodkorning turli mavzuga bag'ishlangan badiiy asarlarida badiiylilikni oshirish, shu bilan birga o'quvchida real tasviriy holatni ishontira bilish, emotsional bo'yoqdor so'zlardan foydalana bilish o'ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so'z san'atkoridan katta mahorat talab etishi kuzatiladi.

Akademik G'afur G'ulomning badiiy asarlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli bo'lgan so'z va atamalar ijodkor uslubiga xos o'z badiiy ifodasini topgan. Bu esa, albatta, so'z san'atkorining dunyoqarashi bilan bog'liq kuzatuvchanlik, turli sohalarga bo'lgan qiziquvchanlik, ayniqsa, gumanistik g'oyalar bilan yo'g'rilgan ijtimoiy, tabiiy sohalarga nisbatan chuqur mulohazakorlikdan darak beradi. So'z ustasi asarlari oddiy xalqning mayda kosiblikdan tortib, bozor muomalasi, savdo-sotiq bilan bog'liq o'zaro munosabatlar, shuningdek turli toifadagi insonlar hayotida ro'y bergan hodisalar, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar tafsiloti ijodkor tafakkuridan chuqur joy olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tilining stilistik normalari nutq madaniyati masalalari. – T., 1973
2. Абдуллаева Л. Стилистическая дифференциация лексики узбекской художественной литературы. ADD. – Т., 1980.
3. Abdurahmonov G', Shukurov Sh. «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi». – T., 1973.
4. «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati ». I-IV. – T.: Fan, 1983-1986.
5. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – T., 1985.
6. Boboyeva S. Hamid Olimjon poeziyasining leksik xususiyatlari. – T.: Fan, 1989.
7. Bafoev B. Ko'hna so'zlar tarixi – T., 1991.
8. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981.
9. Дадабоев Х. Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi bir ma'nodoshlik xususida o'zbek filologiyasi masalalari. – T., 2002.
10. Дадабоев Х. Общеественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных памятниках XI-XIV vv. – T.: Yozuvchi, 1991.
11. Данияров Х.Д. Опыт изучения джскающих диалектов в сравнении с узбекским литературным языкам. – T.: Fan, 1975.
12. Doniyorov X. So'z san'ati. – T., 1962.
13. Jumanazarov Yu. Til va uslub. – T., 1973.
14. Каримов С. А. «Язык с стиль произведений Зульфийи». АКД. – T., 1982.
15. Mukarramov M. «O'zbek tilida sifatlash». O'TA, 1973. 6-son.
16. Махмутов А. Архаизмы и историзмы в Казахском языке. АКД. Алмата. 1963.
17. Mutolibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – T., 1959.

18. Ne`matov X., Rasulov R. O`zbek tili sistem leksikologiyasi asarlari. Sistem leksikologiya va tarixiylik. – T.: O`qituvchi, 1995.
19. Ne`matov X, Bozorov O. Til va nutq. – T., 1993.
20. Muxammadjonova G. «G`afur G`ulom she`rlarining ba`zi bir til xususiyatlari. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar». –T.: Fan, 1965.
21. Рахматуллаев Ш. «Архаизм ва историзм. Научные труды» ТашГУ. Вып. 211. 1963.
22. Safarova R.G. «Leksik-semantic munosabatning turlari». – T.: O`qituvchi, 1996.
23. Samadov Q. Oybek – so`z san`atkori. T., 1965.
24. Sodiqova M. Fe`l stilistikasi. T., 1972.
25. Стратеп В.В. Арго и арготизм Труды комиссии по русскому языку. – L., 1931.
26. Said Ahmad. Yo`qotganlarim va topganlarim. – T.: Sharq, 1993.
27. To`ychiyev B. O`zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T.: O`qituvchi, 1996.
28. Fozilov E. Hayot haqiqati va so`z qudrati. O`TA, 1979.1-son.
29. Choriyev B. G`afur G`ulom she`riyati tili . –T., 1994.
30. Шаинский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М., 1965.
31. Shomaqsudov A. O`zbek tili stilistikasi, I-II qism. – T., 1974.
32. Shoabdurahmonov Sh. Mohir so`z san`atkori O`TA, 1973, 4-son.
33. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. «Hozirgi o`zbek adabiy tili». – T.: O`qituvchi, 1980.
34. Shamsiddinov H, Madvaliyev A. Leksik semantic usul bilan termin yasalishiga doir. O`zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari . – T: Fan, 1986, 106-107 betlar. 1959, 4-son.
35. Shukurov N. G`afur G`ulomning tilidan foydalanishdagi mahoratiga doir. O`zbek tili va adabiyoti masalalari. AKD. – T: 1979.

36. O‘zbek tili leksikologiyasi. –T.: 1981.
37. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-II tomlar. –M., 1981.
38. O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at. – T., 1953.
39. Qilichev E. O‘zbek tilining praktik stilistikasi. – T., 1986.
40. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – T.: Fan, 1982.
41. Qodirov P. Til va dil. – T., 1972.
42. Qodirov M. Badiiy asar tilini o‘rganish masalalari. O‘TA, 1987. 3-s.
43. Qo‘ng‘urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – T., 1980.
44. Qo‘chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi –T., 1975.
45. G‘afur G‘ulom asarlari. O‘n tomlik. Beshinchi tom. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at” nashriyoti, 1973.
46. G‘afur G‘ulom asarlari. Besh tomlik. To‘rtinchi tom, – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at” nashriyoti, 1968.
47. G‘afur G‘ulomning badiiy olami. – T.: Fan, 1984.
48. Hamidov Z. So‘z san‘ati va san‘atkor mahorati. – T., 1991.
49. Hamidov Z. O‘zbek tili tarixi muammolari xususida, o‘zbek filologiyasi masalalari. –T., 2002.
50. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati . –T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2002.